

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
JAHON SIYOSATI, TARIX VA FALSAFA FAKULTETI  
SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

**SAIDOV JAVOHIR MAMATQUL O'G'LI**

**MUHAMMAD IQBOL IJODIDA DINIY VA DUNYOVIY  
BILIMLAR UYG'UNLIGI**

5120500 – Falsafa

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Falsafa fanlari doktori,  
professor **Bahodirov R.M.**

Toshkent – 2015

## **Bitiruv malakaviy ish himoyaga tavsiya etildi**

Jahon siyosati, tarix va falsafa

fakulteti dekani

**Alimova R.R.**

\_\_\_\_\_“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

Sharq falsafasi va madaniyati

kafedrası mudiri

f.f.n., dots. **Po‘latova D.A.**

\_\_\_\_\_“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Hindiston.....</b>	<b>10</b>
1.1 XIX asrning II yarmi XX asrning I yarmida ijtimoiy-siyosiy hayot..	10
1.2 Muhammad Iqbolning hayoti va ijodi.....	17
<b>II bob. Muhammad Iqbolning dunyoqarashi.....</b>	<b>28</b>
2.1 Muhammad Iqbolning bilish nazaryasi.....	28
2.2 Iqbol talqinida shaxs va jamiyat.....	37
<b>Umumiy xulosalar.....</b>	<b>49</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>54</b>

## Kirish

***Mavzuning dolzarbligi.*** Hozirgi kunda biz murakkab tarixiy sharoitda jahonning turli mintaqalarida turli shakildagi ma'naviy mafkuraviy kurashlar avj olgan sharoitda yashamoqdamiz. Mana shunday hujumlarga uchramaslik uchun avvalambor, yosh avlodni ma'naviy axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunda jamiyat va xalq oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki kuchli huquqiy demokratik davlat asosini aynan axloqan barkamol va ma'naviy yetuk yoshlargina barbo etishi mumkin.

President Islom Abdug'aniyevich Karimov 2008 yild chop etilgan "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida hozirgi kunda avj olayotgan mafkuraviy xurujlarga qarshi turish hamda bu borada sharq falsafasi va ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini o'rganishning yuksak ahamiyatini ko'rsatib berdilar. President bu borada quydagi fikrni keltirib o'tadi: "Qadimgi Hind, Xitoy yoki Yunon faylasuflarini olasizmi, O'rta asrdagi Sharq va G'arb uyg'onish davri namoyondalarini olasizmi, islom olamida nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi, ularning ilmiy merosida moddiy va ma'naviy olam o'rtasidagi munosabatga keng o'rin berilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, antik davr faylasuflari bo'lmish Suqrot va Platon, Epikur va Demokrit, Xitoy donishmandi Konfutsiy va boshqa allomalarning bu boradagi nazariy qarashlari fan tarixidan yaxshi ma'lum. Bunday falsafiy yondlashuvlarning har biri o'z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukumron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy siyosati, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qiladi"<sup>1</sup>.

"O'zbek va hind xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari uzoq tarixga ega. O'zbekiston ham, Hindiston ham qadim sivilizatsiya beshiklaridandir. Buyuk davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asrda "Boburnoma" kitobi bilan butun dunyo uchun Hindistonni yangidan kashf qildi, hind xalqini esa Vatanimizning go'zalligi, ko'rki tarovati bilan tanishtirdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar yangi mazmun

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, B-65.

bilan boyidi, hamkorlik izchil taraqqiyot yo'liga tushdi"<sup>2</sup>. Hindiston falsafasi juda ham boy va juda ham qiziqarlidir. O'tmishdan to shu kungacha o'zining tarixi, madaniyati va ma'naviyati bilan butun jahonga tanilgan Hindiston sivilizatsiyalar beshigi hisoblanadi.

Bundan tashqari Islom Karimov Samarqandagi konfrensiyada ham quyidagi fikrlarini aytib o'tadilar: Sharq Renessansi davri Hindistonning akademik va madaniy doiralari tomonidan ham chuqur o'rganilmoqda. Bugun ushbu anjumanda Indira Gandi nomidagi Milliy madaniyat markazining ilmiy rahbari, IV-XV asrlardagi O'rta Osiyo yozma manbalarini qiyosiy o'rganish bo'yicha uzoq yillardan buyon samarali ish yuritib kelayotgan professor Mansura Haydar xonim ham ishtirok etayotganini aytib o'tmoqchiman. Olimaning Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarining tarixiy ahamiyati" deb nomlangan ilmiy monografiyasi xalqaro miqyosda keng e'tirof etilgan bo'lib, u Amir Temurning hayotligi davrida uning davlatchilik faoliyatiga bag'ishlab yozilgan yagona kitobni batafsil tadqiq etishga qaratilgan<sup>3</sup>.

Islom Karimovning olib borayotgan oqilona siyosati samarasi o'laroq bugun O'zbekistonning dong'i dunyoga taraldi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq mamlakatimiz jadal suratlar bilan rivojlana boshladi. "Taraqqiy topgan, dunyoda katta nufuzga ega davlatlarning rahbarlari va shularning vakillari O'zbekitonga kelib, o'z hurmatini izhor qilishi, o'z takliflarini bildirishi, hamkorlik masalasiga, umuman, birgalashib ishlashga tayyor ekanliklarini izhor qilishi – bu ularning O'zbekistonni, xalqimizni, bizning salohiyatimizni yana bir bor e'tirof etganini, tan olganini bildiradi"<sup>4</sup>.

Albatta, mamlakatimizning bugungi kunda erishayotgan yutuqlari va jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan do'stona aloqalari haqida ko'plab

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz // Karimov I.A. Barqaror taraqqiyotga erishish ustuvor vazifa. Tom 7. -Toshkent: O'zbekiston, 1999. 45-bet.

<sup>3</sup> Karimov I. "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi ro'li va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so'zi. 2014-yil 16-may.

<sup>4</sup>Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz // Xalqimiz jipsligi tinchlik va taraqqiyot garovi. Tom. 7 -Toshkent: O'zbekiston, 1999.45-bet.

misollarni keltirishimiz va gapirishimiz mumkin. Jumladan Hindiston bilan bugungi kunda iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarni olib borayotganimiz hammamizga ma'lum. Islom Karimov Hindistonning "Times of India" gazetasi muxbiri savoliga quyidagicha javob bergan edilar: Agar iloji bo'lsa, O'zbekistonning Hindiston bilan munosabatlari to'g'risida ikki og'iz gapirib bersangiz. "O'zbekiston Hindiston bilan an'anaviy tarixiy aloqalar orqali bog'langan. Ayni paytda mazkur mamlakat bilan munosabatlarda nimagaki ega bo'lsak, u bizdagi mavjud imkoniyatlar darajasida emasligini aytish joiz. O'zbekiston delegatsiyasining Hindistonga qiladigan rasmiy tashrifi iqtisodiy va siyosiy hamkorligimizning jadal rivojlanishi uchun turtki berishiga umid qilaman... Suhbatimiz oxirida o'zbek xalqi Hindiston xalqiga katta hurmat bilan qarayotganini, bizning do'stligimiz va hamkorligimiz aniq-ravshan mazmun bilan boyib borishini xohlayotganini aytmoqchiman. Hindiston xalqi bilan rahbarlariga tinchlik va farovonlik tilayman"<sup>5</sup>.

Markaziy Osiyoning tadqiqotchisi Pokistonlik Axmad Hasan Donyi Hindiston va O'zbekiston to'g'risida shunday degan: "Biz ikki xalq o'rtasidagi ilmiy, madaniy, ma'naviy aloqalarimizning ildizlari bir, madaniy va ma'naviy aloqalarimizning mushtarak tomonlari ko'p. Bir tomondan, Buyuk ipak yo'li orqali bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'rta Osiyolik olimlarning ilmiy tadqiqotlari markazi Janubiy Osiyo madaniyati, ilm-fani yotgan bo'lsa, uchinchi, Samarqand, Buxoro kabi qadimiy ilm-fan markazi hisoblanmish shaxsrlardan u yerga borib hokimlik qilgan davlat arboblari qadimgi va O'rta Osiyo ilm-fani va madaniyatini keng targ'ib qilib kelganlari tufayli ikki xalq, ikki davlat o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik rishtalari chuqur ildizga ega"<sup>6</sup>, deb aytgan edi.

Yuqoridagi fikirlardan kelib chiqqan holda shuni takidlash joizki, ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi qadimdan rivojlanib kelgan Hind falsafasini o'rganish, Muhammad Iqbolning falsafiy qarashlari bilan yaqindan tanishish va

---

<sup>5</sup>Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida // Xalq so'zi gazetasi. 1991-yi, 16-avgust. -Toshkent: O'zbekiston, 2011.364-bet.

<sup>6</sup> Axmad Hasan Donyi. Kelajagi porloq davlat. "Milliy tiklanish" gazetasi noyabr, 1996.

faylasufning ta'limotini hozirgi kunda o'rganilganlik darajasini tadqiq etish bilan belgilanadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Hind falsafasi butun jahonda, jumladan, G'arbda va Sharqda keng va chuqur o'rganilgan sohalardan hisoblanadi. Hind falsafasini tadqiq etgan sharqshunos olimlar qatoriga Axmedova M., Yo'ldoshev S., Shomatov O. va boshqa olimlarni kiritish mumkin.

Faylasuf shoir Muhammad Iqbolning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari bir qancha sharqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu olimlar qatoriga S.Yo'ldoshev<sup>7</sup>, Н.И.Пригарина<sup>8</sup>, Teshaboev F.<sup>9</sup>, H.Malik<sup>10</sup> va boshqalarni keltrish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti.** Sharq xalqlari, jumladan, musulmon olamining falsafiy-axloqiy tafakkurida ahamiyatga ega bo'lgan Hind musulmon falsafasi ushbu tadqiqot ishining ob'ekti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti.** Hindiston falsafasi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan iste'dodli shoir faylasuf va siyosatchi olim Muhammad Iqbolning falsafiy ta'limoti hisoblanadi. Uning yaratgan ta'limotini chuqur tadqiq etish falsafa va boshqa bir qator fanlarni yangi va foydali ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** Ishning maqsadi Muhammad Iqbolning asarlaridagi falsafiy g'oyalarni tadbiq etishdir. Faylasufning shaxs va jamiyat haqidagi qarashlarini tahlil etib, uning ta'limoti va mutafakkir tomonidan ilgari surulgan fikirlarning jamiyatimiz uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini ochib berishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari.** Ushbu tadqiqot ishida biz quydagilarni vazifa qilib oldik:

---

<sup>7</sup> Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol abadiyati.-Lahor.Shirkat press, 2009.

<sup>8</sup> Пригарина. Н.И. Поэзия Мухаммад Икбала.-Москва. Наука,1972.

<sup>9</sup> Teshaboev F. Muhammad Iqbol dunyoqarashining asoslari. -Toshkent. Fan, 1979.

<sup>10</sup> Malik. H. Iqbal man of thought and action Iqbal Poet and Philosopher of Pakistan.- New York 1971.

- XIX asr oxiri, XX asrning birinchi yarmida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy holatni o'rganish.
- Muhammad Iqbolning hayoti va ijodiy faoliyati bilan yaqindan tanishish.
- Alloma dunyoqarashining shakillanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni ko'rsatish.
- Olimning bilish nazaryasini tahlil etish.
- Mutafakkirning insonga munosabatini o'rganish.
- Iqbolning shaxs va jamiyat haqidagi qarashlarini yoritish.

***Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.*** Muhammad Iqbolning hayoti va faoliyati bir qancha tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Shunga qaramay o'zbek tilida uning ilmiy ijodi borasida ma'lumotlar kam. Shu sababdan uning faoliyatini o'zbekcha milliylik va tafakkur bilan yondlashish ishning yangiligi bo'la oladi. Olimning asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy-iyosiy va davlat boshqaruviga oid qarashlarini bitiruv malakaviy ish darajasida tahlil qilinganligi jihatdan yangi izlanish hisoblanadi.

***Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy asoslari.*** Ushbu tadqiqot ishini olib borish jarayonida mavzuga ta'luqli bo'lgan bir qancha adabiyotlardan foydalanildi. Birinchi galda, tadqiqotning jamiyat va xalq hayoti bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etishda prezident asarlari bosh asos bo'lib xizmat qildi. Prezidentimizning “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”<sup>11</sup>, “ O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida ro'li va ahamiyati”<sup>12</sup>, “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz”<sup>13</sup> kabi asarlaridan foydalanilgani tadqiqotning jamiyat va xalq hayoti uchun ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

---

<sup>11</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T. O'zbekiston, 2008.

<sup>12</sup> Karimov I. “O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida ro'li va ahamiyati” -T. Xalq so'zi. 2014.

<sup>13</sup> Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz. T.8.-T. O'zbekiston, 2000.



Shunigdek, tadqiqotni olib borish jarayonida xorijiy va o'zbek olimlari asarlari ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Н.И.Пригарина<sup>14</sup>, S.Yo'ldoshev<sup>15</sup> kabi sharqshunos olimlarning asarlaridan tadqiqot ishining asosiy mazmunini yoritishda foydalanildi.

***Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati.*** Ushbu tadqiqot ishning nazariy ahamiyati shundaki, Iqbolning falsafiy qarashlaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytrishda, mustaqil fikrni shakillantrishda, jamiyatni taraqqiyotini yuksaltrishda foydalansak bo'ladi. Tadqiqot ishida komil inson va insonparvarlik (Gumanizm) g'oyalarida milliy mafkuramizga mos keladigan jihatlari mavjud. Prezident Karimov I. bu haqida shunday degan: "Milliy mafkura yaratish haqida so'z yuritar ekanmiz, birinchidan, shuni chuqur anglab olishimiz darkorki, bu masala bir yillik yoki besh – o'n yillik emas. Xalq, millat o'z milliy mafkurasini butun umri davomida takomillashtrib, boyitib boradi. Chunki mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas. Bu uzluksiz jarayon bo'lib, hayot davom etar ekan uning shiddatli sur'ati tufayli mafkuraning oldiga qo'yiladigan yangi-yangi talablar ham paydo bo'laveradi. Yangi millat manfaatlariga javob beradigan, tinimsiz o'zgarish va yangilanishni taqozo etadigan milliy mafkurani yaratish uchun mumtazam ish olib borish lozm.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin. Butun xalqni birlashtiradigan bayrog' bo'lmish mafkurani shakillantrish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida Xudoning o'zi aql-zakovat, iste'dod, kuch-quvvat ato etgan, yorqin tafakkurga ega bo'lgan buyuk shaxslar zahmat chekkanini ko'ramiz. Mana, Konfutsiy va Maxatma Gandi, Forobiy va Bahovuddin Naqishbandni olaylik. Bu zotlar umumbashariy tadqiqot miqiyosida tanilgan, teran insoniy g'oyalar, ma'naviy boyliklarning qadr-qimmatini chuqur anglaydigan donishmand odamlar bo'lgan.

---

<sup>14</sup> Пригарина. Н.И. Поеззия мухаммад Икбала. -Москва. Наука,1972.

<sup>15</sup> Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol abadiyati. -Lahor.Shirkat press, 2009.

Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakillantrish uchun har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'sa, mutafakkirlari, xalq va Vatan ravnaqi uchun hayotini bag'ishlaydigan fidoyi zotlari mehnat qilishlari lozm"<sup>16</sup>.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, hozirgi kunda turli ta'limotlarni o'rganib, atroflicha tahlil qilib, zamonamiz talabiga muvofiq to'g'ri xulosa chiqarish va ulardan yoshlarimizni ilmiy-ma'naviy dunyoqarashini kengaytrishda, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash masalalarini qamrab olganligida nomoyon bo'ladi.

***Bitiruv malakaviy ishning uslubiy asoslari.*** Ushbu tadqiqot ishida ob'ektivlik, xolislik, sistemalilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz-sintez, tarixiylik va mantiqiylik, germenevtik tahlil, vorisiylik, umuminsoniylik va milliylikning o'zaro birligi, qiyosiy tahlil, ilmiy-falsafiy tamoillar uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

***Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.*** Tadqiqot ishi kirish, to'rt bandni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

---

<sup>16</sup> Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz. T.8.,-T. O'zbekiston, 2000. B-494

## **I bob. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Hindiston**

### **1.1 XIX asrning II yarmi, XX asrning I yarmida ijtimoiy-siyosiy hayot**

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Osiyoda mustamlaka qilinmagan davlat deyarli qolmadi, shu jumladan, Hindiston XIX asrda inglizlar tomonidan bosib olindi va bu yerda bir necha asr hukum surgan “boburiylar imperyasi”ga barham berildi. Bu yerda yashovchi ko’p xalqlar ozodlik g’oyalari butkul unutgandek ko’rinardi. Hatto, yangicha tafakkur tarzini olib kirgan musulmonlarda ham erkinlik, ozodlik g’oyalari yo’qdek ko’rinardi. Bu vaqtda Yevropa o’z mustamlakalarini kengaytrib, gullab-yashnayotgan edi. Portugallar Malakada Arab saltanati hukumronligiga chek qo’ydi, Hindiston qirg’og’i va Sharqdagi boshqa dengiz mintaqalarida tayanch istehkomlar bunyod etdi. Portugallarning ziravor-dorivor sohasidagi savdo-sotig’iga ikki yangi davlat Angliya va Gollandiya qarshilik ko’rsata boshladi. Portugallarni Sharqdan siqib chiqarishdi. Portugallarni quvib, juda g’ururlanib ketgan Ost-Indiya kompanyasi 1685 yilda harbiy kuch yordamida Hindistondagi hududlarini kengaytrishga urundi. Bu harakat kompaniya uchun ayanchli talofat bilan yakunlandi. Harbiy kemalar Anglyadan Hindistongacha bo’lgan butun yo’lni bosib o’tib, sharqda Bangoliya g’arbda Avrangzeb mulkiga hujum qilishdi. Boburiylar esa, ularni mag’lub qilish uchun yetarli kuchga ega edi.

Shu tariqa Yevropaning Osiyodagi bosqinchilik siyosati davri boshlandi. Hindistondagi Boburiylar sulolasining ovozi Yevropaga ham yoyilgan edi. Mazkur sulolaning olti nafar eng yirik hukumdorlaridan so’ng, saltanat bo’laklarga ajralib ketdi va shu bo’laklardan maratxlar bilan sikkalar o’z davlatlarini qurishdi. Ular ortidan kelgan inglizlar markaziy hokimiyat qulab, tartibsizlik boshlanganidan foydalanib, asta-sekin o’z hukumronligini o’rnatishdi<sup>17</sup>.

---

<sup>17</sup> Qarang: Жаҳон адабиёти. – Т, 4. 1997.

Qadimgi Hind tuprog'i shu voqealardan boshlab qarib ikki asr davomida ingliz burjuaziyasi oyog'i ostida qoldi. Hindiston iqtisodiy jihardan talon-taroj qilindi, madaniy va ma'naviy imtiyozlari iskanjaga olindi. XVIII asrning 70 – 80 yillarida ingliz mustamlakachilariga qarshi Bangol dehqonlarining dastlabki katta qo'zg'olonlari bo'ldi. Keyinchalik asta-sekin butun Hindistonda zulim zo'ravonlikka qarshi kurash avj oldi.

XIX – XX asr boshlarida Hindiston millatida milliy-mustamlakachilik va ijtimoiy tengsizlikka qarshi ongli ravishdagi kurash qo'zg'alishining ilk alomatlari paydo bo'la boshladi. Mahalliy ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va Milliy kongressda mustamlakachilik tuzumiga qarshilik ko'rsatishning yo'llari va usullari masalasi bo'yicha mafkuraviy va siyosiy kurash avj oldi. Hindistonning kelgusidagi ijtimoiy rivojlanishi to'g'risida turli xil fikrlar vujudga keldi.

XIX asrning birinchi yarmida Hindistonda ijtimoiy milliy-burjua harakati tashkil topib, keyingi o'n yilliklar mobaynida ushbu harakat xalqdan yiroqligicha qoladi, xalq noroziligi esa, ko'pincha, tabiiy ofat singari bostirib kelinardi.

Mustamlakachilik sharoitida vujudga kelgan burjua munosabatlari o'ziga xos va chegaralangan xususiyatga ega edi. Hindiston jamiyatining yangi elementlari – burjua sinfining o'tmishdoshlari – XIX asrning uch choragi davomida asosan, Kalkutta, Bombay, Madras kabi bir nechta yirik shaharlarda to'plangan tor qatlamdan iborat edi. Bular endigina tashkil topayotgan ziyolilar savdogar-zamindor muhitidan chiqqan, yevropacha tipdagi ilk o'quv yurtlarida tahsil olgan va keyinchalik savdo korxonalarini xizmatchilari, inglizlar hindiyalar egallashiga izn bergan lavozim egalari va erkin kasb egalari aylanganlar. Asrning ikkinchi yarmiga kelib eng omadli savdogarlar o'z fabrikalariga ega bo'lib sanoat kapitalistlariga aylanishga muvaffaq bo'ldilar. Aynan shu davrdan boshlab, Hindistonda mulkdor burjua jamiyati sinfi shakllana boshlandi va bu jarayon hozirgacha davom etib kelmoqda.

Burjua munosabatlarning rivojlanishi mafkura sohasida jamiyatning yetakchi doiralarida diniy-islohot va ma'rifiy g'oyalarning tashkil topishi shaklida aks etdi.

Hindistonning ilk milliy-burjua nuqtai nazaridagi mutafakkiri Ram Moxan Ray (1772-1883) ham diniy islohotchi, ham ma'rifatparvar sifatida faoliyat olib borgan. Bu xususiyat keyingi avlod hind mutafakkirlariga, Maxatma Gandi, Said Axmad Xon va Muhammad Iqbolga ham xos bo'lib, ularning dunyo qarashi diniy-islohot hamda ma'rifatparvarlik elementlariga ega bo'lgan.

Muhammad Iqbolning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati aynan XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Hindiston tarixida bu davr kapitalistik tuzumning gullagan davriga to'g'ri keladi. Bu yo'lda juda ko'p qurolli qo'zg'olonlar bo'lib o'tgani bizga ma'lum. Ulardan eng yirigi 1857 – 1859 yillarda bo'lib o'tgan “Sipohilar qo'zg'aloni hisoblanadi. Ost-Indiya kompanyasida yonlamma askar sifatida xizmat qilayotgan musulmon va hind sipohilariga tarqatilgan o'q-dori sabab bo'lgan. O'q-doriga cho'chqa va sigir yog'i surtilgan degan mish-mishning tarqatilishi sipohilar orasida norozilik kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu askarlarning diniy tuyg'ularini mensimaslik edi. Norozilik tezda yirik qo'zg'alonga aylanib ketadi. Qo'zg'alon muvaffaqiyatsiz yakullangan bo'lsada, Hindistonda Ost-Indiya kompanyasining tugatilishiga olib keldi. Bu kurashda oddiy xalq ommasi, ya'ni ishchi-dehqonlar, hunarmandlar va mayda burjuaziya vakillari ishtirok etdi.

Hindiston milliy ozodlik harakatida ziyolilar ham faol ishtirok etishdi. Ular orasida musulmon mutafakkirlari ham, hindlar ham bor edi. Yagona ozodlik yo'lidagi kurash ularni birlashtirdi. Bu mutafakkirlar orasida Maxatma Gandi, Rabindranat Tagor, Svami Vivikananda, Said Axmadxon, Ghosh, Muhammad Iqbol va boshqa mutafakkirlar bor edi. Ular oddiy xalq uchun yo'lchi yulduz va g'oyaviy rahnamo bo'lishdi.

Muhammad Iqbolning diniy-falsafiy nuqtai-nazari, islohotga oid faoliyati, dindand voz kechmay turib dunyoni ratsional ravishda qabul qilishga intilishni aks ettirgan. Shu bilan birga, Hindistondagi diniy burjua islohotlarining yana bir

o'ziga xos xususiyati, dinni odob-ahloq normalari bilan to'ldirish tendentsiyasidir. Shu kabi Ram Moxan Rayga xos bo'lgan intilish keyingi hind mutafakkirlarida, ayniqsa XIX asr oxiri XX asr boshida yanada rivoj topdi. An'anaviy hinduizmni tanqid qila turib, Ray ham ratsional, ham odob-ahloq normalari nuqtai nazaridan yondashgan. Eng asosiy etik tamoyil sifatida quyidagi fikrni ilgari surgan: "Abadiy baxt-saodatga intilgan inson, boshqalarga ham xuddi o'zidagidek munosabatda bo'lishi kerak va o'zgarar baxti yoki baxtsizligini o'ziniki, deb hisoblamog'i lozim"<sup>18</sup>, deydi.

Muhammad Iqbol Hindistonda hukim surayotgan diniy va irqiy adovat jamiyatni rivojlantrmasligini anglab yetgandi. Faylasuf bu haqda "Ijtimoiy tengsizlik, diniy va irqiy adovat hkim surgan jamiyatda inson kamolotga erisha olmay, muttassib an'analarning qurboni bo'lib qoladi. Shuning uchun jamiyatda ijtimoiy tenglik, adolat o'rnatish uchun, diniy, irqiy adovatga barham bermoq kerak. Inson qanday din, mazhab va millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar, u avvalo insondir"<sup>19</sup>, deydi. Faylasuf Ona-Vatani Hindistonda avj olayotgan irqchilik va millatchilik g'oyalariga keskin qarshi chiqib, vatandoshlarini yagona bir oila a'zolaridek inoq-totuv yashashga chaqiradi.

Hind islohotchilarining ham diniy, ham odob-axloq universalizmida, insonlarning qaysi dinga ishonishidan qat'iy nazar tengligi g'oyasi ilgari surilgan. Bu o'z navbatida, millatlar va irqlarning tengligini anglatgan. 1804 yilda Ram Moxan Ray shunday yozgan "Barcha insonlar qaysi dinga ishonishidan qat'iy nazar bir xil azob-uqubatlardan, sovuqdan va qorong'ulikdan, xastaliklar va hayot zarbalaridan, tana va psixik majruxliklardan aziyat chekishadi"<sup>20</sup>. Hindiston milliy ozodlik harakatining ko'zga ko'rinadigan tomonlaridan biri bu diniy tomonidir. Diniylik mustamlakaga qarshi kurashishga otlangan xalqning ruhiyatidagi yetakchi element hisoblanadi. Javaharlal Neru bu

---

<sup>18</sup> Ran Moxan Roy, The English Works, vol. I, 811 b.

<sup>19</sup> Prof. Yo'ldoshev Sadulla. Muhammad Iqbol Abadiyati -Lahor 2009, B- 10.

<sup>20</sup> R.M.Roy, The English Works,

haqida shunday degan: “Yangi millatchilik Sharqdagidek Hindistonda ham diniy tusda nomoyon bo’lishga mahkum edi”<sup>21</sup>.

Ma’rifatparvarlik g’oyalarining targ’ib qilinishi nafaqat o’rta asrlarga oid munosabatlarning, balki mustamlakachilik tizimining ham tanqid qilinishiga olib keldi. Vaqt o’tishi bilan ushbu jarayon XIX asr milliy tashkilotlarining faoliyatida sezilarli o’rin egallay boshladi. Bu asosan mustamlakachilik ekspluatatsiyasiga, hindlarning Hindistonni qoloqlikka, xalqni esa, qashshoqlikka mahkum etayotgan Britan hokimiyati oldida haq-huquqsizligiga qarshi tanqidlardan iborat edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida faoliyat olib borgan milliy mutafakkirlardan biri Dadabxay Naorodji (1825-1917) shunday degan: “Britan hukmdorlari Hindistonning old eshiklarida turib, butun dunyoga uni tashqi xavfdan qo’riqlayotgani haqida ta’kidlashadi, o’zlari esa, uning orqa eshigidan o’zlari qo’riqlab turgan xazinani olib ketadilar”<sup>22</sup>. Yana boshqa mutafakkir M.G.Ranade mustamlakachilik tuzumi “millat hayotini tashkil etgan faollikni to’xtatib qo’yadi”, “siyosiy hokimiyat monopoliyasi esa, savdo va sanoat monopoliyasiga olib keladi”,<sup>23</sup> degan.

Hindiston jamiyatining burjua elementlari, keyinchalik esa, shakllanayotgan burjua sinfi ingliz kapitali va mustamlakachilik hokimiyatiga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan qaram bo’lgan. Vujudga kelayotgan burjua elementlari inglizlar hukmronligi davrida vujudga kelgani sababli mamlakatda an’anaviy kuchiga ega emas edilar. Shunday ta’sir kuchga ega bo’lmasdan va inglizlar tomonidan monopollashtirilgan davlat boshqaruviga qatnasha olmasdan, bunday burjua elementlari aytarli darajada siyosiy o’ringa ega emas edilar. Endigina shakllanayotgan burjuaziya faqatgina xalq o’zligini anglab yetib, ommada o’zining millatchilik ta’siriga ega bo’lgandagina siyosiy kuchga aylana olardi. Bu faqatgina XX asrda sodir bo’ldi.

---

<sup>21</sup> Неру Ж. Автобиографияю – М., 1995ю с – 33.

<sup>22</sup> “Новая история Индии”, -М., 1961. Стр. 466

<sup>23</sup> “Новая история Индии”, -М., 1961. Стр. 466-467

Musulmon ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishida Hindistonda 1905 – 1908 yillarda boʻlib oʻtgan inqilobiy voqealar katta rol oʻynagan. Vatanparvar Hindiston ziyolilari boʻlib oʻtgan inqilobiy voqealar Hindiston xalqini oʻz mustaqilliklari demokratik huquqlarini tiklash yoʻlida ongli ravshda ommaviy siyosiy kurashga dastlabki qadamlarni qoʻygan edilar<sup>24</sup>.

Hindistondagi oʻrtahol musulmon ziyolilarining mafkurasi Shibliy Noʻmoniy, Abul Kalom Ozod, Muhammad Iqbollarning qarashlarida oʻz ifodasini topgan. Ular maʼrifatparvarlik ruhida tarbiyalanganliklari uchun ingliz kolonizatorlariga, ularning siyosatini qoʻllab-quvvatlovchi mahalliy rahbarlarni tanqid qilishib, Milliy Kongres Partiyasi faoliyatini qoʻllab kelganlar.

XIX asr davomida va xattoki XX asr boshlarida hind milliy tashkilotlari faqatgina yuqori tabaqalarga mansub boʻlgan. Shunga qaramasdan, XIX asrda vujudga kelayotgan hind burjuaziyasining muayyan tashkillanishiga erishilganligi – Milliy kongress birinchi hind milliy tijorat palatasi bilan deyarli bir vaqtda tashkil topgan, antiimperialistik harakatning milliy-burjua boshqaruvining amalga oshirilishida muhim rol oʻynadi. Ammo milliy tashkilotlar u davrda ommaviy tarzda faoliyatdan yiroq boʻlgan. Bunday sharoitda, endigina shakllanayotgan burjuaziya mamlakatda oʻzining talablariga javob beradigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni mustaqil ravishda oʻrnatishga erisha olmasdi. U ingliz hokimiyati oʻzining ekspluatatorlik manfaatlarida foydalanadigan burjua huquqiy tartibi elementlaridan foydalanib, oʻzining hokimiyati ostida rivojlanishiga erishishga harakat qilgan.

Shunday qilib, liberal maʼrifatparvarlarning faoliyati hindlarda milliy va demokratik oʻz-oʻzini anglashga yordam berib, milliy-ozodlik harakatining oʻsishiga zamin yaratish bilan bir qatorda, ozodlik urushini ushlab turuvchi muayyan gʻoyaviy-siyosiy anʼanani ham yaratdi. Ushbu milliy harakatning liberal chegaralanganligini yengish uchun, XIX – XX asr mutafakkirlari Mahatma Gandi, Muhammad Iqbolga juda koʻp harakat qilishiga toʻgʻri keldi.

---

<sup>24</sup> Qarang: Axmedova M., Yoʻldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi, - T, 2006, B–186.



Radikal millatchilik g'oyalarining keyingi rivoji, Svamn Vivekanda (1863-1902) qarashlarida o'z aksini topgan. G'arbda Vivekandani asosan diniy faylasuf sifatida bilishgan. Ammo uning chiqishlari faqatgina diniy-falsafiy mavzular bilan cheklanib qolmagan. U ushbu mavzuni Hindistondagi mavjud ijtimoiy va siyosiy muammolar bilan uzviy bog'lagan.

U ham Bonkimchondro singari, liberal faoliyatning mustamlakachilik hokimiyati oldida kuchsizligidan g'azablangan. "Bizning yosh tenyaklarimiz, - der edi u, - inglizlardan ko'proq hokimiyat olish uchun mitinglar uyushtirishadi. Ular esa faqatgina kulishadi. O'zi ozodlik berishga tayyor bo'lmaganlar, ozodlikka nomunosibdir. Faraz qilaylik, inglizlar sizga barcha hokimiyatni berishadi. Keyinchi? Bu hokimiyat, xalqni quyida ushlab turish uchun ishlatiladi. Undan ko'ra ularda bu narsa bo'lmagani ma'qul. Qullar hokimiyatni qul qilmoq uchun xoxlashadi"<sup>25</sup>, deydi.

1894 yilda Vivekanda Chikagoda shunday yozgan: "G'arbda bizning kastalarimizni tanqid qilishsa ham, ularning o'zlarida biznikidan battarroq kasta bo'linishlari – pul bo'yicha bo'linishlar mavjud. Barcha ishga qodir dollar – amerikaliklar uni shunday atashadi – bu yerda nima hoxlasa shuni qilishi mumkin"<sup>26</sup>.

Vivekanda o'tmishga aylanayotgan mulkdor tartib ham, mamlakatda tashkil topgan burjua munosabatlari ham to'laligicha maqul emas, degan hulosaga kelgan ilk hind mutafakiri bo'lgan.

Ijtimoiy qarama-qarshiliklardan qutulishning yagona yo'li bu "hind ma'naviyat"ini tasdiqlashda deb bilib, Vivekandadan boshlab, hind mutafakkirlari Hindistonning tarixiy vazifasi – dunyoga qutqaruvchi ma'naviyat olib kirishdir, deb hisoblashgan.

Hindistonda birinchi bo'lib, 90-yillarning oxirida Bal Gangadhar Tilak proletariat illatlarini qoralab chiqqan. Uning "Maratta" gazetasi shunday yozgan: "Inglizlar hokimiyati notavon dehqonlarni o'z sevimli dalalarini,

---

<sup>25</sup> "The Complete Works of Swami Vivekanda", Advaita Ashrama, 1922-1951, vol. IV, 313 b.

<sup>26</sup> O'sha asar, 307 b.

uyalarini tashlab, Bombeyning kir va tor mavzellariga joylashishga majbar qilmoqda. Ular u yerda badbo'y kulbalarda yashab peshona teri bilan bir bo'lak non topishadi, o'z qishloqlariga qaytganda esa, ularning jamg'armalari faqatgina yer solig'ini to'lashga yetadi. Maxarashtrning jasur dehqonlari va Konkanning ziroatchilari endi armiya va flotda xizmat qilmayaptilar. Ingliz hokimiyati qachonlardir Konkan va Maxarashtrning asosiy kuchi hisoblanganlarni, o'z Vatanlari iftixori sanalganlarni – oddiy batraklarga aylantirdi<sup>27</sup>, deydi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan, yuqorida keltirib o'tilgan, Hindiston milliy-ozodlik harakatining yetakchi mutafakkirlarining g'oya va qarashlari Muhammad Iqbol fikrlarining shakllanishida tarixiy asos bo'lib xizmat qildi. Muhammad Iqbol va uning izdoshlari tomonidan tashkil etilgan "Musulmonlar ligasi" Ingliz hukumatining zo'ravonlik va bosqinchilikka asoslangan siyosatiga, Hindistonni ozodlikka erishishida xizmat qildi.

## **1.2 Muhammad Iqbolning hayoti va ijodi**

Sharq she'riyati va falsafasining yorqin yulduzlaridan biri Muhammad Iqbol 1877 yil 9 noyabrda hozirgi Pokiston Islom Respublikasi Panjob viloyatiga qarashli Sialkot shahrida mayda tijoratchi oilasida tavallud topdi. Alloma iqbolning yozishicha, uning ajdodlari asli kashmirlik braxmanlardan bo'lib, deyarli 300 yil avval islom dinini qabul qilishgan. Islomni qabul qilgan bu xonadon boshqa ko'p xonadonlar singari rojalarning zulmidan tang ahvolga tushgach, Kashmirni tashlab, Sialkotda istiqomat qila boshlaydi. Bo'lajak shoirning otasi Shayx Nurmuhammad va volidasi Imom bibilar taqvodor kishilar bo'lganliklari uchun, o'z farzandlarini ham islom dini ruhida tarbiyalshga katta e'tibor berishgan. Oilada hukim surgan diniy ruh hamda bu xonadonga ziyorat qilib keladigan kishilarning din haqidagi suhbatlarini eshitgan iqtidorli, o'tkir zehnli Muhammad Iqbol ularni o'z qalbiga jo qiladi. U boshlang'ich ma'lumotni ona shahri Sialkotda olib, keyinchalik ilmiy va madaniy markazlardan biri Lahor shahriga kelib, o'z tahsilini oshirish maqsadida kollejga kirib o'qiydi. Silokotdagi missionerlar maktabida tahsil olayotgan chog'ida, Iqbol arab-fors

---

<sup>27</sup> "Times of India, Overland Weekly Edition", 10.IX.1897.

adabiyoti va tilini mukammal bilgan mashxur olim Said Mir Hasan bilan yaqindan tanishadi. U bo'lajak olim qalbida Sharq she'riyatiga, ayniqsa, fors nazmiga chuqur muhabbat uyg'otadi. Chunki bunga asos bor edi. Ustozining shogirdlari orasida Muhammad Iqbol o'tkir zehni, ilimga chanqoqligi bilan ajralib turardi. Bo'lajak shoirning arab-fors adabiyotiga, tiliga bo'lgan havasi juda baland bo'lib, uning uchun ham ustoz Said Mir Hasan shogirdi Muhammad Iqbol haqida gap ketganda: "Bu yigit kelajakda katta obro'ga ega bo'ladi. Shu boisdan unga arab-fors tili va adabiyotini miridan sirigacha o'rgatish menga huzur bahsh etadi"<sup>28</sup>, degan.

Hazrat Ali ilmni mol-dunyodan ustun qo'ygan edilar. Ularning fikricha, oqillar ilmni afzal biladilar. Ilmni bitmas-tuganmas xazina, deyish mumkin. Johillar esa, oqillardan farqli o'laroq mol-dunyoni afzal biladilar. Agar kishida aql-zakovat hamda kuchli xohish bo'lsa, u ilm yo'liga dadil kiradi. Lekin u bu yo'lda qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki ilm egallash, xalqimiz aytganidek, "igna bilan quduq qazish" degani. Shuning uchun shunday vaziyatda kishiga Hazrat Ali aytgan omil sabr-toqat kerak bo'ladi. Bu omillar birlashsa, kishiga g'ayrat bilan ilm egallaydi<sup>29</sup>.

Darhaqiqat, Muhammad Iqbol ilm o'rganish yo'lidagi har qanday qiyinchiliklardan chekinmay, bilmaganini Sharq va G'arb olimlaridan o'rganishni or bilmadi. Shogirdning ham ustoziga hurmati baland bo'lgan. Chunki, hukumat iqtidorli, kelajagi porloq yosh shoirga "ser", ya'ni "janob" deb murojat qilishni so'raganda, u "Siz ustozimga "Shams ul ulamo", degan unvonni bersangizgina men rozi bo'laman", deydi. Shunda viloyat gubernatori: "Men uning nomini bugun birinchi marotaba eshitayabman. Nima u kitoblar yozganmi?" deb so'raydi. Shunda Muhammad Iqbol: "garchand ustozim kitob yozmagan bo'lsa-da, men uning jonli kitobiman. U shaxs mening eng aziz, mo'tabar ustozimdir", deb javob berdi. Shunda Ingliz hukumati Muhammad

---

<sup>28</sup> Проф. Сайид Абдурашид Фазл Пехли китаб. -Покистон 1978. 11 – стр.

<sup>29</sup> Қаранг. Сарвар Очил Ҳазрат Али шеър ва илм сарвари.- Техрон – Тошкент 2004. 21 – 22 бет

Iqbolni “Ser”deb ataydi, uning ustoziga “Shams ul ulamo” (“ulamolar quyoshi”), degan unvon berdi.

Muhammad Iqbol juda erta Hofiz, Saiyd Sheroziy, Bedil, Rumiylar gʻazallarini mutola qilishga kirishdi. Maktabda oʻqib yurgan paytlaridayoq urdu tilida sheʼrlar bitadi.

Lahorda boʻlajak olim falsafadan tahsil oladi. Bu yerda Iqbol Sharq falsafasi va adabiyotining bilimdoni Tomas Arnold bilan tanishadi. U orqali ingliz tilini puxta oʻrganishga kirishdadi. Tomas Arnold kollejdagi ustozlari ichida talabalarga mehribonligi, jonkuyarligi bilan ajralib turishi tufayli, Muhammad Iqbolning unga mehri tushadi. Tomas Arnold yosh, iqtidorli, kelajagi porloq olimga falsafani oʻragatish bilan birga, tabiatni sevishga, undan bahra olishga oʻrgatdi. Lahor kollejining professori janob Tomas Arnold xizmat muddati tugab, oʻz ona yurti Angliyaga joʻnashga taraddud koʻrayotganida shogirdi Muhammad Iqbol bundan xabar topib, xafa boʻladi va undan minnatdor ekanligini izhor qilish uchun “Nale firaq” sheʼrini bitadi.

Shoirning dastlabki nazmlari ustoz Said Mir Hasanga juda maqul boʻladi va u shogirdiga bu nazmlarni oʻz davrining sheʼriyat yulduzi va talabchan tanqidchisi Dogʻ Dehlaviyga yuborib, uning fikrini bilishni maslahat beadi. U shunday qiladi va Dogʻ Dehlaviydan Tez orada yuqori baho oladi. Bunday tahsinga sazovor boʻlgan olim ilhomlanib, oʻz hayotini sheʼriyatga bagʻishlaydi.

Iqtidorli shoir sheʼriyatning piri Dogʻ dehlaviy bilan yozishmalar olib boradi. Dogʻ Dehlaviy iqboli baland yosh shoirga qimmatli maslahatlarini berib keladi va nihoyat, Muhammad Iqbolning sheʼrlari endi tahrirga muhtoj emasligini bildiradi. Yosh shoir bu ulugʻ shoirning koʻplab shogirdlari qatorida oʻzining munosib oʻrnini topgan edi. Dogʻ Dehlaviyning yuqori bahosidan ilhomlangan shoir, turli anjumanlarda, mushoiralarda oʻz sheʼrlari bilan asta-sekin xalq orasida tanila boshladi va sheʼriyat muxlislari nazariga tushdi. Dogʻ Dehlaviy vafot etganligi toʻgʻrisidagi mashum xabarni eshitgach, Iqbol qattiq qaygʻurib, ustozining xotirasiga iztirob va alamga toʻla marsiyasini bitadi.

Muhammad Iqbolning valid va validasi o'z farzandining roziligini olmasdan 15 yoshligidayoq uni Gujarotlik doktor Ato Muhammadning qiziga (Ariy xotunga) uylantirib qo'ygan edilar. Ariy xotun juda yumshoq fel, ochiqko'ngil, lekin savodsiz, oddiygina bir qiz edi. Muhammad Iqbol unga nisbatan muhabbat, ya'ni ma'naviy yaqinlik sezmaydi. Iqbol ushbu xotinidan Oftob Iqbol isimli o'g'il va Meroj Begim isimli qiz ko'rdi. Lekin qizi Meroj Begim 18 yoshga to'lar to'lmas olamdan ko'z yumdi. U 1899 yili Lahorda "Anjumane himayate islom" jamoasining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda o'zining "Nalae yatim" she'rini o'qib, she'riyat muhlislarining tahsinlariga sazovor bo'lgan edi. O'sha kundan e'tiboran Lahorda urdu tilida chop etiladigan "Maxzan" jurnalining har bir sonida Muhammad Iqbolning she'rlari chop etila boshlandi. Muhammad Iqbol mazkur jurnalning bosh muxarriri, urdu adabiyotining ko'zga ko'ringan taniqli vakili Shayx Abul Qodir bilan yaqindan tanishib, u bilan qiyomatli do'st bo'lib qoldi.

Abul Qodir o'zining yaqin do'sti va vatandoshi haqida mamnuniyat bilan shunday dil so'zlarini bitgan: "Agar men tanassux nazaryasiga ishonganimda edi, unda men shunday degan bo'lardim – she'riyaga o'zini bag'ishlagan Mirzo G'olib o'zi bilan she'riyatni lomakonga olib ketgan bo'lsa-da, bu she'riyat uni yana yerga qaytarib tushishga majbur qilardi va yana qaytadan o'zining shulasi bilan biror bir foniy insonning qalbini yoritib, yana doimo gullab turgan she'riyat bo'stonini sug'organ bo'lardi. Buyuk shoirning ikkinchi marotaba Panjobda qayta tug'ulgan bo'lib, she'riyat san'atining barcha tilsimotlarini Muhammad Iqbol isimli insonga bag'ishlagan bo'lardi"<sup>30</sup>, deydi. Darhaqiqat Muhammad Iqbol she'rlari Hindiston va Pokistonda Mirzo G'olib she'rlari singari mashxurdir.

1899 yili Iqbol kollejni ikki oltin medal bilan tugatib, magistrlik darajasini olishga muvaffaq bo'lidi, o'sha yiliyoq uni falsafa va fiqhdan ma'ruza o'qishga olib qoldilar. Mazkur kollejda u 1905 yilgacha mudarrislik qildi.

---

<sup>30</sup> Проф. Сайид Абдурашид Фазл Пехли китаб. -Покистон 1978. 27 стр.

1903 yili istedodli yosh olim iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan "Ilm al iqtisad" nomli asarini chop etadi. Bu asar uning iqtisod fani bo'yicha chop etilgan birinchi asari edi. 1905 yili Muhammad Iqbol kollejdagi mehribon ustoz Tomas Arnoldning maslahati va akasining moddiy yordami bilan ilmini oshirish maqsadida Angilyaga jo'naydi. U Londonga jo'nashdan oldin Dehliga kelib, shoir Mirzo G'olibning qabrini ziyorat qiladi va uning qabri ustida shunday she'r bitadi:

“She’riyat maydonida fikru xayol chambarchas  
Lutfu go’yolik ichra kim tengdir senga, G’olib?  
Hindiston sarzamini, nega ters aylading, ayt  
Kelgaymi yana unday aqlu san’atga tolib?  
G’olibday bir insonga muhtojmiz juda-juda  
Jahon e’tiqodini ko’ngillar ichra solib,  
Mehru obod ey Dehli, ilmu hunar beshigi  
Bir kun yig’laydi qasrining, kulbalarining, devorinig.  
Hoki zamining ichra uxlar qamaru quyosh  
Ularning simosida ulug’lik, iqtidorining  
G’olibday javohir ham orom olar qa’ringda  
G’olibki kecha, bugun, ertalik iftixorining”<sup>31</sup>.

Shunigdek, u shayx Nizomiddin Chishtiy qabrini ziyorat qilib, uning ruhi oldida o'zining kuch-quvvati va qalamini vatan ozodligi, xalqi farovonligiga bag'ishlashga qasamiyod qiladi. So'ng, u Bombeyga kelib, u yerdan Angilyaga jo'naydi. U londonga kelgach, Kembrij dorilfununiga o'qishga kirib, taniqli faylasuf Mek Tagget va Jeyms Uordlardan jahon falsafasi va axloqshunosligini chuqur o'rgana boshlaydi. Oradan ikki yil o'tgach, diplom olishga muyassar bo'ldi va 1907 yili Germaniyaning Geydelberg va Myunxen universitetlarida bo'ldi. 1907 yilning noyabr oyida "Eronda metafizikaning rivoji" mavzuida falsafa fanlari doktori ilmiy daraja olish uchun dissertatsiya yoqladi. Doktorlik dissertatsiyasining mavzui Islom dini paydo bo'lgunga qadar mavjud dinlar,

---

<sup>31</sup> Muhammad Iqbol She'rlar. -Toshkent 1973 54-55 bet.

diniy-falsafiy ta'limotlarni tahlil etish bilan birga islom dinining vujudga kelishi, uning oqimlari, mazhablari, falsafiy ta'limotlari hamda ularning yirik namoyondalari ijodini o'rganishga bag'ishlagan. Iqbol mazkur dissertatsiyasida O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Ibin Sino va Bedillarga katta o'rin ajratib, ularning falsafiy ta'limotlarini tahlil qilgan.

1908 yili Muhammad Iqbol Londondan qaytib kelib, huquq fanini chuqur o'rganishga kirishdi, bu soha bo'yicha ham doktorlik diplomini olishga sazovor bo'ladi. 1908 yili uning Londonda "Islom va xalifalik" nomli maqolasi chop etiladi. Uning bu maqolasi Angilyalik siyosatchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Muhammad Iqbol Anglyadan chuqur ilmiy dunyoqarashga ega, ijtimoiy va siyosiy masalalar bo'yicha to'g'ri baho beradigan haqiqiy ziyoli bo'lib qaytgan edi.

Iqbol Yevropada bo'lgan chog'ida shoirlikdan umuman chekinib, ilm-fanga berildi. Yevropada Iqbol Eron falsafasi bilan shug'ullandi. Tasavvufni chuqur o'rgandi. She'riyatni tashlamoqchi bo'lganda ustoz Tomas Arnod unga "Sen she'rlaring bilan Vatanning va xalqinga katta foyda keltirasan"<sup>32</sup>, deydi.

Urdu tili Hindiston yarim orolining o'zida yoyilgan edi xolos. Muhammad Iqbol o'z ovozi butun olamga yoki Sharqqa yoyilishini xohlardi. Fors tili o'sha paytda bu maqsadga erishish uchun munosib vosita edi. Shuningdek, u o'zi yoqtirgan sufiylik falsafasini forsiy tilda bitilgan adabiyotlardan o'rgangan edi. Ayniqsa unga Jaloliddin Rumiyning sufiyona she'rlari katta ta'sir ko'rsatgan edi. Fors tili jarangdorligi, jozibadorligi bilan kishini o'ziga maftun etardi. Fors tili o'sha paytda falsafa tili bo'lgan, deb yozgan Fazl Alim.

Iqbol ijodini to'rt davrga bo'lib o'rganiladi.

**Birinchi davr** 1895 – 1900 yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu davrda yozgan she'rlari romantizmdan iborat bo'lgan.

**Ikkinchi davr** 1900 – 1906 yilgacha bo'lib, bu davrida Muhammad Iqbol she'rlarining markazida ishq masalasi yetakchi o'rinni egallagan.

**Uchinchi davr** 1906 – 1924 yillarga to'g'ri keladi.

---

<sup>32</sup> Проф. Сайид Абдурашид Фазл Пехли китаб. -Покистон 1978. 43-44 стр.

Muhammad Iqbol forscha vazinni urdu tilidagi she'rlarida qo'llaydi. Til o'zgarishi bilan uning fikirlash tarzi ham o'zgardi. Endi u mustaqil faylasuf bo'lib qolgandi. Balki bu o'sha paytda sodir bo'lgan voqea va hodisalarning uning she'riy tabiatiga ko'rsatgan ta'siridir. Iqbol ijodining uchinchi davrida "Xizre rah", degan poemasini yozgan. Muhammad Iqbol ijodining uchinchi davri shuningdek, Mustafu Kamolning iglizlarni Konstantinopldan quvib chiqarib, vatandoshlarini Yevropaliklar changalidan xalos etish bilan bog'liqdir. Butun musulmon xalqlari Mustafu Kamolning bu ishini qo'llab-quvvatlashdi. Bundan ilhomlangan Iqbol "Tulue islam" ("Islom tongi"), degan she'rini yozadi. Bu she'ri bilan Muhammad Iqbol ijodining uchinchi davri yakunlandi. Shundan so'ng u fors tilida ko'p she'rlar yoza boshladi va bu tilga muhabbat qo'ydi.

**To'rtinchi davr** esa, 1924 – 1938 yillarga to'g'ri keladi. Iqbol ijodining to'rtinchi davri fors tilidagi "Payome mashriq" ("Sharq maktubi") dan boshlanadi. Bunda Iqbolning mustaqil falsafasi bayon qilinadi. U 1908 yil Yevropadan qaytgach, Yevropa millatlarining ijtimoiy tuzumini, axloq-odobini ko'rib, ularning maqsadlarini tushunadi. Endi o'z e'tiborini Sharq falsafasiga, musulmonchilikka, sufiylikka qaratadi.

Professor Abdus Salom An-Nadaviy "Iqbole komil" kitobida yozishicha, o'sha paytda falsafa, sufizm masalalari, fikrlar, nazaryalar fors tilida ifodalangan. Shu sababli Muhammad Iqbol Londondan qaytgach, o'z fikr va nazaryalarini ifodalash uchun fors tilini tanladi. Iqbol fors tili, adabiyoti, ayniqsa sufiy ta'limotini o'rganishda piri ustoz Jaloliddin Rumiyning ta'siri naqadar ulug'ligi haqida juda ko'p fikrlarni bayon qilgan. Bu haqida Iqbol o'z estaligida quydagicha yozadi: Men uning dengizidan yaltiroq dur olish umidida yurgan bir to'lqinman"<sup>33</sup>.

Angilyada tahsil olib yurgan kezlarida Iqbolning mavjud siyosiy tuzumga bo'lgan qarashlari sayqallasha boradi, ona Vatanga muhabbat, ozodlik, hurlik g'oyalari qalbining to'ridan joy oldi. Ona Vatanini ingliz bosqinchilaridan xalos etish, musulmonlarning alohida davlatni tashlik etish g'oyalari unga tinim

---

<sup>33</sup> Пригарина Н.И. Поезия мухаммад Икбала. -Москва 1972. 52 стр.



bermay qo'yadi. 1906 yili Hindistonda "Musulmonlar Ligasi" tashkil qilinadi. Iqbol bu partiyaning Angilyada ochilgan shubasi ishida faol ishtirok eta boshladi. 1908 yili u Laho'rga qaytib kelgach, Laho'r davlat kollejida falsafa va ingliz adabiyoti kafedrasiga professorlik lavozimiga tayinlanadi. Shuningdek u advokatlik bilan ham shug'ullanadi. Oradan ikki yil o'tgach, Iqbol ingliz mamuriyatiga tegishli davlat kollejida ishlashni o'ziga ep ko'rmay, uni tark etib, siyosatda, ozodlik harakatida faol ishtirok etishga bel bog'laydi.

Yevropada ilm olib yurgan chog'larida Muhammad Iqbol zodagon oiladan chiqqan Atiya begum Fayziy bilan tanishgan edi. Ular bir-birlari bilan tez-tez uchrashib, falsafa, adabiyot, vatan taqdiri haqida suhbatlashib turishadi. Iqbol davlat xizmatidan voz kechib, ingliz hukumronligiga qarshi ijtimoiy-siosiy sohada o'zining dastlabki qadamini qo'yadi. U 1909 yili "Mening o'zim ham diniy tafovutlar barham topishi shart degan fikrda edim, hozirda ham shaxsiy hayotda bu aqidaga ishonchim komil. Ammo hozirgi kunda hindular uchun ham, musulmonlar uchun ham zarur bo'lgan milliy jamoani muhofaza etish zarur. Bir butun Hindiston millatini barpo etish shoirning ezgu orzusi bo'lib kelgan. Lekin uni hozirgi sharoitda stixiyali jarayonda ikki jamoa taqqiyoti yo'nalishida amalga oshirish amri maholdir"<sup>34</sup>, deb yozgan edi.

Shundan so'ng Iqbol musulmonlarni siyosiy faollikka chaqirishni, ingliz hukumronligi ostida yotgan vatandoshlarining og'ir ahvolini yaxshilashni o'zining asosiy burchi va vazifasi deb bildi. Tabiyki, Muhammad Iqbolning milliy-ozodlik harakatidagi faoliyati uning siyosiy ongining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1915 yili Iqbol o'zining forsiy tilida yozgan "Asare xude" ("shaxs sirlari") nomli masnaviysini chop ettiradi. Mazkur asarda shoir shaxsning ma'naviy komolotga erishish yo'lidagi faoliyatini mohirona tasvirlab, bu borada faol harakat qilishga davat etadi. Bu asar ingliz sharqshunosi, yirik adabiyotshunos professor Nikolsonda katta qiziqish uyg'otadi va bu asarga so'z boshi yozib, uni ingliz tiliga tarjima qildirib chop ettiradi. 1918 yili shoirning ikkinchi masnaviysi "Rumuze behudiy" ("shaxs sirlarining ochilishi") asari fors

---

<sup>34</sup> Albiruni A.N. *Maker of Pakistan and Modern Muslim India*. -Lahore. 1950 174 b.

tilida chop etildi. Bu asarda shaxsning komolotga erishuvida jamiyat muhim rol o'ynashni ko'rsatib, "jamiyat shaxslarsiz hech narsa bo'lmagani kabi, shaxs ham jamiyatsiz hech narsa emas", deydi. "Shaxs bamisoli bir inju yoki dur bo'lsa, marvarid shodasi jamiyatdir yoki shaxs bir tomchi suv bo'lsa, jamiyat dengiz demakdir"<sup>35</sup>, deydi olim.

Muhammad Iqbol shaxs va jamiyat o'zaro qattiq bog'langanini e'tirof etar ekan, birining rivoji ikkinchisining rivojlanishiga olib keladi deydi. "Shaxs va jamiyat aslo bir-biriga zid turmasligi lozim. Aslini olganda, jamiyat shaxsdan yuqori turmoqligi lozim va shuningdek, barcha shaxslar jamiyatda bab-baravar huquqqa ega bo'lishi kerak. Shaxs o'z rivojiga faqat jamiyat taraqqiyoti orqali erishadi va kamol topadi"<sup>36</sup>. Individ va xalq bir-birining aksini ko'rsatuvchi ko'zguning ikki tomonidir. Xalqdan ajralgan inson bamisoli daraxtning singan snomida chop ettiradi.

1928 yili mutafakkir Hindistonning Madrasdagi davlat kollejida oltita maruza o'qiydi va bu ma'ruzalar asosida o'zining "Reconstruction religious thought of Islam" ("Islomdagi diniy fikrlarni isloh qilish") nomli asarini chop etadi. 1926 yili Muhammad Iqbol Panjob viloyatining qonun chqaruvchi tashkilotiga a'zo etib saylanadi. 1930 yili Iqbol Ollohobod shahrida o'tqazilgan Butun Hindiston Musulmonlar Ligasining sessiyasida prezident etib saylanadi va uning ishida faol ishtirok etadi. Shu sessiyada Muhammad Iqbol Hindistonda musulmonlar davlatini tashkil etish masalasini qo'yadi. Shuningdek, milliy davlatni tashkil etishdan tashqari vatandoshlarini mustamlaka asoratidan xalos etish, mustaqillikni qo'lga kiritish choralari haqida fikr yurita boshladi.

1931 yili Muhammad Iqbol Londonda tashkil etilgan davra suhbatida Maxatma Gandi va boshqa siyosiy arboblarni qatorida, Hindistondagi musulmonlar nomidan ishtirok etdi. Olimning Londonga tashrif buyurganidan foydalangan hindistonlik talaba va aspirantlar Muhammad Iqbol bilan muloqotda bo'lishdi. Shunisi qiziqki, Londonda ta'lim olayotgan hindistonlik

---

<sup>35</sup> Muhammad Iqbol. Asare xudi, -London 1915 99 b.

<sup>36</sup> Muhammad Iqbol. Asare xudi, -London 1915 98 b.

talabalardan biri Choudhriy Rahmat Ali Muhammad Iqbolga bo'lajak musulmonlar davlatini "Pokiston" deb atshni taklif etadi. Bu nim musulmonlar ko'p istiqomat qiladigan viloyatlarning hariflaridan tuzilishi asosida bo'ladi, ya'ni Panjobdan P, Kashmirdan K, Sinddan S va Belujistondan Tan lardan bo'lishi kerak deganda, Iqbol bu fikrga hayrihohlik bildiradi. Bu taklif Musulmonlar Ligasining novbatdagi konfrensiyasida ko'pchilik tomonidan maqullanadi.

1933 yili oktyabr oyida Muhammad Iqbol Afg'oniston podshohi Nodirshoh taklifiga binoan Afg'oniston bo'ylab safar qiladi. U Jalolobod, Kobul, G'azna va Qandahor shaharlarida bo'lib, taniqli olim va adiblar bilan uchrashadi, ularni Sayohatnoma nomli asarida chop ettiradi. 1935 yili Muhammad Iqbol o'zining "Bale Jabrail" ("Jabroil qanoti"), 1936 yili "Zarbe Kalim" ("Musohassasi") she'riy to'plamini chop ettiradi. Keyingi ikki yil ichida (1937 – 1938) shoirning sog'lig'i zaiflashadi. 1935 yilgi xotiniining o'limi unga katta musibat keltirgandi. Muhammad Iqbol keyingi oilasidan ikki farzand: o'g'li Jovid Iqbol va Munira begum bor edi.

Muhammad Iqbol 1938 yili 21 aprelda 61 yoshida tomoq saratoni kasalidan vafot etadi. Uni Lahor shahridagi Podshohi Masjid yoniga dafn qildilar. Olim vafotidan bir necha oy o'tgach, so'ngi asari "Armug'one Hijoz" ("Hijoz sovg'asi") chop etiladi. Muhammad Iqbol vafoti haqida buyuk hind adibi va mutafakkiri Robindranat Tagor bunday deb yozgan edi: "Muhammad Iqbolning vafoti adabiyotimizga shunday rahna soldiki, uni bamisoli og'ir yara kabi uzoq muddat davolashga to'g'ri keladi"<sup>37</sup>. Mutafakkirning vafoti haqida Afg'on shoiri Qiyomiddin Xodim shunday baytlarni yozgan:

"Iqbol sening g'aming bilan yig'lar barcha musulmonlar  
Chindan Shomgacha, Rum, turkiya, Hindu Afg'onlar,  
Umir bo'yi chekding azob xalq g'ami bilan.  
Do'slaring ko'z yoshdan qurib, bitdi lolazor,  
Ko'z yumganing tufayli barchada alam, ozor.

---

<sup>37</sup> Vahid S.A. Iqbal.His Art and Thought. -London 1959 24b.

Manzil uzoq, yuk og'ir, yo'l-so'qmoq xatarli erdi,  
Sening nag'mang ularga doimo madad berdi.  
Sayid, Shibliy, Xoliy qoldirgan yuk yo'lingda,  
Manzilga olib bording bir o'zing o'z qo'lingda.  
She'r va falsafani hikmat bilan bog'lading,  
Undan millat dardiga davo topib ardoqlading.  
Hayot hokimisan sen, bashar g'ami qalbingda,  
Xaloyiq motam tutar boshin egib nazdingda.  
Sharqu G'arb o'rtasida jangu jadal maydonini  
Hal etishga sarflading hayoting har onini”<sup>38</sup>.

---

<sup>38</sup> Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri -Toshkent 1979 110 b.

## **II bob. Muhammad Iqbol dunyoqarashi**

### **2.1 Muhammad Iqbolning bilish nazaryasi**

Muhammad Iqbol o'z elining milliy ongi uyg'onayotgan hamda Hindiston ziyolilarining siyosiy faolligi jo'sh urgan bir davrda yashab ijod etdi. U Sharqning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkuri tarixida taniqli faylasuf, islom ta'limotining jonkuyar targ'ibotchisi Shoh Valiulloh, buyuk hind ma'rifatparvari, adibi "Aligarh harakati" nomli ma'rifatparvarlik harakatining asoschisi Said Ahmad Xon kabi mashxur mutafakkirlar orasida munosib o'rin oladi. Bularning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va diniy qarashlari, o'zlari yashagan va undan keyingi davrlardagi Hindiston yarim orolida yashovchi musulmonlarning ijtimoiy tafakkurining asosini belgilab bergan, desak yangrishmaymiz. Bu fikrimizni ko'pgina Sharq va G'arb olimlari aytgan dil so'zlari bilan isbotlash mumkin.

Shoh Valiulloh, Said Ahmad Xon, Muhammad Iqbol turli davrda yashab ijod qilishlariga qaramay, ularning dunyoqarashi va faoliyatlarining mushtarak tomonlari ham bor. Bulardan eng birinchisi, jamiyatni ijtimoiy taraqqiyot yo'liga boshlash, davr sharoitiga qarab diniy islohotlarni amalga oshirish, inson muammosi va boshqalar. Iqbol "Hindistonda dinni isloh qilish kerakligini birinchi bo'lib Shoh Valiulloh Dehlaviy sezgan edi"<sup>39</sup>, deb yozgan.

Dinni isloh qilish, bidat va xurofotlardan tozalash Shoh Valiulloh ijodida qanchalik muhim bo'lsa, Said Ahmad Xon va Muhammad Iqbol faoliyatlarida ham shunchalik muhim o'rin tutgan. Shak shubhasiz bu mutafakkirlar ta'limotlaridagi umumiy tomonlar o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, Muhammad Iqbol shaxs masalalarida faollik va bunyodkorlik g'oyalari katta e'tibor bergan, uning bu g'oyalari Said Ahmad Xon ta'limotidagi "apni madad ap" (o'z-o'ziga yordam) g'oyasi bilan uyg'unlashib ketganini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, Muhammad Iqbolning falsafiy qarashlari bir tomondan musulmon diniy falsafasi va Sharq xalqlari mashxur mutafakkirlarining ilg'or

---

<sup>39</sup> Iqbal. M. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958 97 b.

falsafiy g'oyalari, ikkinchi tomondan G'arb falsafasining chuqur o'rganish asosida kamol topdi. Jumladan, Rus olimi N.P.Anikev bu borada quydagicha yozadi: “Uning qarashlari juda ko'p bir-biriga zid doktorinalar ta'sirida bo'lganligini ko'rsatib turadi”<sup>40</sup>. Bu sohada Iqbol falsafasini tadqiq qilgan hind olimi I.Singh shu narsani takidlaydiki, odam to'g'risidagi Muhammad Iqbol qarashlari Hindistonning o'tgan asrdagi buyuk kishilari R.M.Roy, Said Ahmad Xondan tortib to Maxatma Gandigacha yashagan faylasuflarda bo'lganidek bir butun va tugal emas, ular har xil bo'laklardan tashkil topgan mozaikaga o'xshaydi. Bu bo'laklar bir-birdan farq qiladi, ayrimlarini esa ajratib bo'lmaydi. Ammo Muhammad Iqbol haqida gap ketganda, bu baho uning qarashlari to'g'risida muayyan tasavvur hosil qiladi<sup>41</sup>. Xuddi shu ahvolni biz Shoh Valiulloh va Said Ahmad Xonlar qarashlarida uchratamiz. Ular har xil qatlamlardan iborat va bu qatlamlarning paydo bo'lishida har xil ta'limotlarning sintezi sezilib turadi. Shoh Valiullohning Said Ahmad Xonga, Said Ahmad Xonning Muhammad Iqbolga ta'sirini olib ko'radigan bo'lsak, hatto bu tasirning o'zi ham bir yo'sunda o'tmagan, balki ma'lum evolyutsiyani boshdan kechirgan<sup>42</sup>, deb yozadi taniqli faylasuf F.Teshaboev.

Rus olimi L.R.Gordon Polonskaya shunday yozadi: “Muhammad Iqbolning qarashlari murakkabligi bilan ajralib turadi, ayrim masalalar bo'yicha u qadimgi islom aqidalariga yaqinlashsa, boshqa masalalarda Said Ahmad Xonning “tabiiy maktabi” (olam va hayotni tabiiy fanlar asosida tushuntrish maktabi) va Gegel, Kant, hatto Nitshe falsafasining ta'sirini ko'rishimiz mumkin<sup>43</sup>. Muhammad Iqbol o'zining “Eronda metafizikaning rivoji” mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida shunday xulosaga keladiki, tasavvuf ta'limoti islomda tarixiy ildizga ega emas va u o'z novbatida inson shaxsining har tomonlama rivojiga to'sqinlik qiladi. Bu fikr unchalik to'g'ri emas, chunki

---

<sup>40</sup> Анিকেев Н.П. Проблема личности в философии Икбала «Вопросы философии» -Москва 1959 №6

<sup>41</sup> Qarang. Anikewv N.P.. The Doctrine of Personality in Iqbal Poet and Philosopher of Pakistan -New York 1971 282-283 b.

<sup>42</sup> Qarang. Teshaboev F. Muhammad Iqbol dunyoqarashining asoslari -Toshkent Fan 1979 62-62 b.

<sup>43</sup> Гордон Полонская Л.Рю. Мусульманские течения в общественной мысли Индии и Пакистана -Москва 1963 202 стр.

tasavvuf komolot yo'llarini o'rganadi. O'sha davrda tasavvufga nisbatan Muhammad Iqbolning salbiy munosabati uning barcha diniy-falsafiy konsepsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazdi. "Mutasavvuflar aql-idrokni bilishning manbai"<sup>44</sup> ekanini tanqid qilishi din tarixida ijobiy ekanligi tasdiqlanmagan, deb yozadi. Bu masalada ham jaxon mutafakkirlari yakdil emasdir.

Inson xudo bilan bilim manbai sifatida ruhiy munosabatda bo'lishi mumkin, degan g'oyalarni tanqid qilishga qaramay Muhammad Iqbol bu narsaga idealistik pozitsiyadan qaramaydi, bu shak-shubhasiz ijobiy ahamiyatga egadir. Muhammad Ali va ko'pgina boshqa musulmon ziyolilari singari Muhammad Iqbol ham 1905-1908 yillarda bo'lib o'tgan inqilobiy voqealar davrida milliy harakatning tarafdori bo'lgan. U 28 mart 1909 yili Muhammad Aliga yozgan maktubida shunday deydi: "Mening o'zim ham uzoq vaqtgacha diniy tafovutlar bu mamlakatda barham topishi lozim degan fikirda edim va o'zimning shaxsiy hayotimdan kelib chiqqan holda men hamon shu nuqtai nazarda turaman. Biroq, endi tushunishimcha hududiydashgan milliy jamoani himoya qilish hindularning ham, musulmonlarning ham maqsadlariga muvofiqdir. Hindistonda bir butun millat haqida orzu qilish bu poetik uslubdagi ajoyib g'oya bo'lib, o'ziga tortuvchi kuchga ega, lekin hozrgi vaqtda bu jamoalarning rivojlanishida ko'zga tashlanib turgan tabiiy tamoillar sharoitida buni amalga oshirish mumkin emas"<sup>45</sup>. Shak-shubhasiz, Muhammad Iqbol o'z qarashlarida bir tomondan, islom falsafiy ta'limotlariga mansub bo'lgan ilohiyot va din ta'siridagi ratsionalizm o'rtasida, ikkinchi tomondan G'arb falsafasiga doir qarashlarida Kant va Gegel idealizimi bilan Nitshe iratsionalizimi o'rtasida ikkilanishdagi holatda bo'lganligi ehtimoldan holi emas. Alloma islomni isloh qilishga harakat qilgan bo'lishiga qaramay, albatta ratsionalizm tarafida turganiga shubha bo'lishi mumkin emas.

Boshqa bir faylasuf olimi M.T.Stepanentsning yozishicha, "Muhammad Iqbol ijodi o'rta asr so'fiy falsafasiga yaqin turadi. Darhaqiqat, Muhammad

---

<sup>44</sup> M.Iqbal. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958 107 b.

<sup>45</sup> O'sha asar 1-2 b.

Iqbol ijodida katta ta'sir ko'rsatgan XIII asr allomasi Jaloliddin Rumi bo'lgan. Uni Muhammad Iqbol o'zining piri ustoz, deb biladi. Rumiyning ijodiy merosi Muhammad Iqbol uchun ilhom manbai bo'lib kelgan"<sup>46</sup>.

Ayrim Ovropa olimlari Muhammad Iqbol dunyoqarashiga bir tomonlama yondlashgan holda unga G'arb falsafasi nihoyatda kuchli bo'lgan deyishadi. Bunday munosabat to'g'ri emas. Shak-shubhasiz, Iqbol dunyoqarashining shakillanishida G'arb falsafasining ta'siri bo'lgan, lekin uning dunyoqarashi Sharq falsafasi asosida shakillangan. Albatta Muhammad Iqbol mutloq aql, intuitsiya, shaxs, individ kabi falsafiy kategoriyalarni ishlab chiqishda Kant, Fichte, Hegel, Shopenhaur, Nitshe, Bergson, Jeyms va boshqalarga murojat qilgan va ulardan foydalangan. Iqbol ayni shu masalalar bo'yicha bir qator Sharq mutafakkirlarining ta'limotlariga ham murojaat etgan, ulardan ayrim paytlarda, ayrim masalalarni hal etishda foydalangan. Masalan, so'fiylar ta'limotidagi "Vahdat al vujud" va "Vahdat al mavjud" tushunchalarini sharhlashda Muhammad Iqbol shubhasiz Ibn al Arabiy, Al Jiliy, Shayx Axmad Sirhiandiy, Bedil, G'oliblarga murojaat qilgan. Evolyutsiya nazaryasini ilgari surishda Muhammad Iqbol Ibn Taymiya singari olimlarga murojaat qilish bilan birga Ovropa biologlaridan E.Gekkel va boshqalarning asarlarini ham o'rgangan<sup>47</sup>.

Muhammad Iqbol shuningdek, qadimiy yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu, Geraklit, Demokrit va boshqalarning ta'limotlarini o'rgangan va chuqur tahlil qilgan. Faylasuf shoir o'zining she'riy asarlarida Aflotun g'oyalarini tanqid qiladi. Iqbol uchun ahamiyatli bo'lgan narsa, Aflotun va Arastu fikrlari islom falsafasiga qay darajada ta'sir ko'rsatganini aniqlashdir. Alloma Ashariy, Mo'taziliy va boshqa oqimlarning qarashlarini tahlil etar ekan, vaqt, zamon va makon, mayda zarrachalar to'g'risida ularning qarashlari yunon faylasuflarinikidan nimasi bilan farq qilishini aniqlashga intiladi<sup>48</sup>. Iqbolning qarashlari markazida tabiat va inson masalasi turadi. Bu masala Muhammad

---

<sup>46</sup> Qarang. Степанянц М.Т. Философии и социология в Пакистане -Москва 1967 43 стр.

<sup>47</sup> Qarang. Malik H. Iqbal man of thought and action Iqbal Poet and Philosopher of Pakistan -New York 1971 65 b.

<sup>48</sup> Qarang. Iqbal. M. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958 67-68 b.



Iqboldan oldin o'tgan Sharq va G'arb mutafakkirlarining ham diqqat markazida edi.

Muhammad Iqbol falsafasining asosiy masalasini hal etishda ob'ektiv idealizm pozitsiyasida turgan. Uning borliq va bilish nazaryasi to'g'risidagi konsepsiyasi ma'lum darajada Gegel dialektikasi ta'sirida shakillangan. Tabiat, jamiyat va inson doimiy harakatda, rivojlanishda va shakillanishda deb qaraydi. Inson qudratining doirasi tabiatdan ustunligini, inson o'zini o'rab turgan kuchlardan qudratli ekanligini anglash unga yangi ishonch berdi. Iqbol yangi nuqtai nazarni ishlab chiqishga kirishib, eski muammolarni yangi tajriba asosida qayta ko'rib chiqdi va o'z novbatida yangi muammoga duch keldi. U inson ongi, zamon, makon va sababiyat haqidagi asosiy tushunchalarga yangicha yondashishga intildi. Iqbol fikricha, ilmiy qarashlarning rivoji asosida bilish tushunchasining o'zi ham o'zgardi. “Eyshteyn nazaryasi bizning koinot haqidagi tasavvurimizni o'zgartirib yuborib, din va falsafa muammolarini qayta ko'rib chiqishga davat etdi. Shuning uchun ham Osiyo va Afrika mamlakatlarining yosh avlod musulmonlari o'z dinlariga yangicha yondlashishni boshladilar”<sup>49</sup>.

Mutafakkirning tabiat va Olohga qarashlari mistik so'fiylar va mutakallimlar qarashlaridan farq qiladi. U o'z asarlarida hatto so'fiylar ta'limotini tanqid qiladi. “Asare xude” (“shaxs sirlari”) asarida Muhammad Iqbol Aflotunni hayotni tark etuvchi falsafani yaratuvchisi<sup>50</sup>, deb ataydi. “Men tasavvuf muammosiga ilmiy nuqtai nazardan yondlashdim, oldin tan olingan qarashlarga qarama-qarshi, tasavvuf turli intellektual va axloqiy kuchlarning mahsuli bo'lib, ular zarurat tug'ulgan paytda mudroq qalblarda buuk hayotiy ideallarni uyg'otishga davat etadi”<sup>51</sup>, deb yozadi Iqbol. U so'fiyona qarashlarida Bahovuddin Naqishband va Sirhindiylar tariqatining tarafdori bo'lgan. Harakat haqida fikr yuritib, u harakat moddiylikdan muhimroqdir deydi. Chunki narsalardagi tushunchani harakatdan ajratib olish mumkin. Lekin harakatsiz narsalardan harakat tushunchasini mavhumlashtrish mumkin emas. Shunig

---

<sup>49</sup> Qarang. Пригарина Н.И. Поеззия мухаммад Икбала- Москва 1972 67 b.

<sup>50</sup> O'sha asar 8 b.

<sup>51</sup> O'sha asar 42 b.

uchun universium asosida sof harakat yotadi. Bu sof harakat tafakkur bo'lib, o'zining diskret xarakteriga binoan turli statik harakatsiz lahzalarda bo'linib, ob'ektlarni tashkil etadi.

Muhammad Iqbolning Bergsondan farqi shundaki, u tafakkurning diskret xarakterini ongning quyi shakllarida ko'radi. Yuqori shaklida esa, intuitsiya rol o'ynaydi, deydi. Tafakkur universium u idrok, anglash, qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib, faqatgina qator statik lahzalar bo'libgina qolmay, balki mavjud ma'lumotlarga asoslanib, inson tajribasining quyi darajasini sintez qila oladi hamda tafakkurning tegishli intuitiv kategoriyalari orqali ularning haqiqiy yaxlitligi va birligini bila oladi. "Tafakkurning maqsadga intilishlilik faoliyati tafakkur va borliqning uchta vaqt tomonini birga bog'laydi, chunki u hozirgi paytda, o'tgan zamonda qo'yilgan maqsadga muvofiq, kelajakda ham o'z o'rniga egadir"<sup>52</sup>, deydi. "Vaqtinchalik jarayonni belgilagan chiziq timsolida ko'rish kerak emas. Chunki u ochiq imkoniyatlarni aktuallashtirishda o'tkazuvchi chiziq jarayonini tashkil etadi. Bu jarayonning maqsadga intilishning ma'nosi shundaki, u tanlash xarakteriga egadir. Ana shu holatga qadar uning taraqqiy etishi o'tmishni, o'tmish madaniyatini faol ravishda ehtiyot qilish va qo'llab-quvatlashdir"<sup>53</sup>, deydi Muhammad Iqbol. Shunig uchun olam o'z taraqqiotti jarayonida ham sifatiiy, ham miqdoriy o'zgarishga ega.

Muhammad Iqbol teologiyaga qarshi asosiy dalil qilib, axloqiy tamoillarni ilgari suradi. Uning fikricha, jarayon sifatida ko'rilayotgan olamni ilgaridan qo'yilgan maqsadni amalga oshirayotgan erkinlik olami, deb bo'lmaydi. Bu borada u olam bamisoli nayrangbozlar harakat qiluvchi sahnaga o'xshaydi, deydi. Teologiya haqida faqat shunday gapirish mumkin. "Butun olam atomning mexanistik harakatidan tortib, inson "men"i erkin harakat qiluvchi fikriga qadar bu buyuk "ego"ning yoki mutloq "men"ning ko'rinishidir. U alohida-alohida "men" lardan tashkil topgan bo'lib, faqat bir-biridan individualligi bilan farq

---

<sup>52</sup> Iqbal M.. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958 52-53 b.

<sup>53</sup> O'sha asar 53 b.

qiladi. Uning oliy va mukammal shakli insonda mujassamlashtirilgandir<sup>54</sup>, deydi faylasuf. Olimning fikricha, moddiy dunyo individ va jamiyat borlig'ining faktoridir. Moddiy dunyo shaxsning imkoniyatlarini ochish doirasini tashkil etib, ularning kuchi tabiat sirlarini egallab olish natijasida amalga oshadi.

Inson va Olloh o'rtasidagi bog'lanish haqidagi, komil inson va barkamollikka erishish yo'llari to'g'risidagi fikrlarni Ibn al Arabiy, Al Jiliy kabi Sharq, shuningdek, G'arb mutafakkirlaridan qabul qiladi. Iqbol moddiy dunyoni obe'ktiv ravishda mavjudligini, uning inson ongidan tashqarida va o'zgarishda ekanini e'tirof etadi. Uning fikricha, real narsalar insonning sezgi a'zolariga ta'sir etib hissiyot uyg'otadi.

“Har gule gar shax min justat o' manam

Ammo har chize ki men bini manam.

Tarjimasi:

Har bir o'sayotgan guling bu men

Har bir ko'karayotgan narsang bu men.

Faylasuf o'z fikrini davom ettirib, Ollohning tabiatga singib ketganini bunday ifodalaydi.

Sho'la (Xudo) unadi dalamda

Va albat aylanadi o'simlikka<sup>55</sup>.

Tashqi olam inson hissiyotining mantiqiy bilimlar va intuitsiyalar manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zining bu ta'limoti ila faylasuf shoir mutafakkirlar va miskinlarning, shuningdek, o'z davridagi agnostiklarning ta'limotiga qarshi chiqib, ularni rad etadi. Fan olamni tadqiq etib, har bir narsa haqida bilim beradi deydi. Olimning qarashlarini tahlil etar ekanmiz, uning olamni bilish pozitsiyasida turganligini, inson bilimlarining kuch-qudratini tan olganligini ko'ramiz. Faylasuf bilish nazaryasida sezgi va ongga katta ahamiyat berib, shunday deydi “Garchand sezgi umumiy bilimni anglatmasa ham, umumiy va

---

<sup>54</sup> Iqbal M.. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958. 72 b.

<sup>55</sup> Iqbol. M. Javednoma -Lahor 1999 22 b.

xususiy bilimlarning manbaini sezgilar tashkil etadi”<sup>56</sup>. Inson sezgi a’zolari orqali butun borliq bilan aloqada bo’ladi. U o’z atrofida, jamiyatda dunyo kezsa, olamda kechayotgan voqea hodisalarni ko’zlari bilan ko’radi, quloqlari orqali eshitadi va u olgan ma’lumotlar, bilimlar uning miyasiga joylashadi, xotirasiga muxirlanib qoladi. Shu yo’sunda inson aqli bilan u olamni, hatto yer kurrasidan tashqaridagi borlig’ni qamrab oladi. Umuman olganda insonning ikki olami ham kengdir. Chunki uning o’y fikirlari, ma’naviyati kengdir. Shu bilan birga, inson hissiyotining ba’zi sub’ektiv tomoni ham bor, deydi Iqbol. Hissiyotning sub’ektiv tomonlari ko’proq insonning ichki holatiga bog’liqdir. Dantis (tish doktori) bemorga hamdardlik izhor etishi mumkin, lekin uning holatiga kira olmaydi. Mening ayshu rohatim, dardim va orzuim mutloq o’zimga ma’lum. U mening shaxsimning bir qismini tashkil etadi. Mening hissiyotlarim, antipatiyam va simpatiyam, mulohazam va fikrim shaxsan o’zimga tegishli<sup>57</sup>, deydi faylasuf.

Hissiy idrok moddiy ob’ektdan tashqarida bo’lishi mumkin emas. Hissiyot materiyani uning moddiy atributlari, sifatleri, bog’lanishlari bilan birgalikda qabul qiladi. Materiya bilan bunday bog’langanlik bo’lmasa, hissiy idrok ham bo’lmaydi. Hissiy idrokdan keyin aqliy bilim turadi. Bilishning bu shakli birinchisiga qaraganda mavhumroq va umumiydashganroqdir. Muhammad Iqbolning fikricha, olam hissiy va aqliy bilishdan tashqari yana intuitsiya orqali bilinadi. Agar inson hissiyoti tufayli konkret, yakka buyumlarni, narsalarni bilsa, aql orqali narsalarning umumiy va universal xossalarini biladi. Intuitsiya orqali esa olam butunligicha, ya’ni hissiy va aqliy bilish orqali bilib bo’lmaydigan barcha tomonlari bilan bilinadi. “Fikir va intuitsiya bir-biriga qarama-qarshidir, degan hech qanday dalil yo’q. Ikkisining asoslari bir bo’lib, biri ikkinchisini to’ldirib turadi. Ulardan birini inson real ravishda qabul qiladi. Ikkisi ham bir-biriga juda zarur, chunki ular bir-birini tiklaydi”<sup>58</sup>.

Muhammad Iqbolning fikricha, ong insonni abstrakt fikirlashga, umumiylikni bilishga olib boradi. Bunday usul orqali bilimga ega bo’ilish ham

---

<sup>56</sup> Iqbal M. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958 33 b.

<sup>57</sup> Iqbal M. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958 33-34 b.

<sup>58</sup> O’sha asar. 2-3 b.

mumkin. Uningcha, hissiy idrok, aqliy bilish va intuitsiya o'zaro bog'liqdir. Tafakkur hissiyotsiz o'zining bilish kuchi va qiymatini yo'qotishi mumkin. Ma'lumki hissiy bilishsiz, aqliy bilishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki biz sezgi a'zolarimiz (ayniqsa ko'rish, eshitish) orqali narsa, hodisalarni his etamiz, idrok qilamiz va buning natijasida olingan ma'lumotlar miyaga uzatiladi. So'ngra bu ma'lumotlar miyada tahlil qilinadi, ular haqida tushunchalar hosil bo'ladi, tegishli xulosalar chiqariladi. Aqliy bilishni hissiy bilishdan ustun qo'ygan Hazrat Ali bir she'rida aqilga shunday baho beradi: "Inson o'z aqliga qindir. Agar tig' bo'lmasa, qindan xayr yo'q"<sup>59</sup>, deydi.

Muhammad Iqbolning intuitsiyasi ratsional bilishga yaqin turadi. Chunki ratsional bilim formal logikaga tayanadi. "Sirasini aytganda mantiqiy tafakkur, universiumning barcha murakkab tomonlarini ko'ra olmaydi, qamray olmaydi"<sup>60</sup>. Iqbolning ituitiv ta'limoti fan va din muammolari bilan bog'liqdir. "Din bu tabiatni sababiyat pozitsiyasidan o'rganadigan fizika yoki ximya emas. Din insonning ma'naviy tajribaasini o'rganishga qaratilgan. Uning doirasini biror bir fanga bog'lab bo'lmaydi"<sup>61</sup>. Fan esa, o'zining muayyan chegarasiga ega. Har bir fan o'zining tegishli tomonini bilishga harakat qilib, boshqa tomonlarni chetlab o'tadi. Shunig uchun ham har bir yakka inson voqeylikning barcha tomonlarini o'zida qamrab olib ko'rsata olishga qodir emas. Shuning uchun bilishning eng oliy shakli ratsional bilish bo'lmay, aksincha intuitsiya bo'lmog'i lozim. Chunki intuitsiya inson borlig'ining barcha tomonlarini bilishga olib boradi. Ratsional intuitsiya bu sub'ekt va ob'ektning, tafakkur va borlig'ning birligidir. Faylasufning fikricha, intuitsiyaning birdan-bir vazifasi umumlashtrishdir. Shunday qilib, Muhammad Iqbol falsafiy masalalarni hal etishda yangi davr musulmon tafakkurining namoyondasi, modernizm bilan konservatizm kurashi davri vakilidir.

---

<sup>59</sup> Qarang. Сарвар Очил Ҳазрат Али шеър ва илм сарвари. -Тошкент 2004 28 б.

<sup>60</sup> Qarang. Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri -Toshkent 1979 72 b

<sup>61</sup> Iqbal M. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. -Lahor 1958 25 b.

## 2.2 Iqbol talqinida shaxs va jamiyat

Hazrati inson muammosi Sharqda qadim qadimdan hayotning bosh masalasi hisoblanib kelingan. Bizga ma'lumki Sharqda inson borliqning asosini tashkil etgan. Hayotning bunyodkori ham inson bo'lgan. Qadimgi Hindistonda yuzaga kelgan braxmanizm, buddizm, jaynizm, hinduizm diniy falsafiy ta'limotlarining bosh masalasini inson tashkil etganini bilamiz. Qadimgi hind xalqlari yaratgan mifalogiya va eposlarda jumladan "Vedda" va "Upanishad"larda inson masalasi asosiy o'rinni egallab kelgan.

Shaxs masalasi barcha davrlarda barcha xalqlar uchun doimo dolzarb va muhim muammo bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari ijodida ham bu masala muhim o'rin egallagan. Sharqning buyuk allomalari Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Jomiy, Navoiy, Bedil, G'olib va boshqalar ijodida shaxs muammosi yetakchi o'rinni egallaydi. Hazrat Ali o'z falsafiy qarashlarida jamiyat va unda insonning o'rni haqida fikr bildiradi. U jamiyatda tenglik va adolat bo'lishi kerak deb hisoblaydi. U jamiyatdagi tabaqalanishga qarshi chiqar ekan, barcha odamlar tengdir, ya'ni ular odam farzandlari ekanligi va shu jihatdan ular o'zaro birodarlardir, degan g'oyani ilgari suradi. Shunday ekan, nega odamlar bir-birlarini xo'ja va xizmatkorlarga ajratadilar<sup>62</sup>, degan fikrni o'rta tashlaydi. U hayoti davomida tengsizlik va adolatsizlikka keskin qarshi chiqqan.

Muhammad Iqbol ijodida ham shaxs va jamiyat masalasi markaziy o'rinni egallydi. Inson mohiyatini ochishda ma'rifatli shaxsning faol harakati nihoyatda zarur ekanligi to'g'risidagi fikri, uning ijtimoiy qarashlarining asosini tashkil etdi. O'zining mazkur konsepsiyasini mutafakkir falsafiy asarlari "Asare xude" (shaxs sirlari), "Rumuze behudi" (shaxs sirlarining ochilishi) va boshqa asarlarida bayon qiladi. Iqbol ta'limotida katta o'rin tutgan shaxs konsepsiyasining ikki tomonlamaligini ko'rishimiz mumkin. "Men va men emas" tushunchalarining o'zaro munosabatini tahlil qilmay, faqat "men"

---

<sup>62</sup> Сарвар Очил Ҳазрат Али шеър ва илм сарвари. -Тошкент 2004 36 б.

tashunchasiga ta'rif berish to'g'ri emas. Faylasuf shaxs masalasida faollik va bunyodkorlik g'oyalarini ilgari suradi. Iqbol shaxs masalasini rivojlantrishda shak-shubhasiz bir qator G'arb faylasuflari Kant, Fixte, Nitshe, Jeyms va boshqalarga murojat qilganini ko'rishimiz mumkin.

Muhammad Iqbol Fixte singari “men va men emas” tushunchalarining mazmuni va mavjudligi to'g'risidagi fikr deb takidlaydi. Foni dunyo ya'ni “men emas”, “men”ning ijodiy faoliyatining aynan ko'rinishidir. Narsa va hodisalar dunyosi, qandaydir mutoq boshqa narsa bo'lmay, balki o'zligimizning bir qismidir. Uning fikricha, shaxs o'zini real hayotda namoyon etadi. “Shaxsning yuksalishi hayotning yuksalishi demakdir, shaxsning tushkunlikka tushishi bu insoniyatning tushkunlikka tushishi demakdir. Hayotning siri tinimsiz yonishdir<sup>63</sup>, deydi. Shaxs faqat faol kurashda, betinim harakatda kamol topadi, deydi. Bunga Iqbolning “Asare xudi” masnaviysidagi “Ko'mir va olmos” she'ri misol bo'la oladi. Faylasuf ko'mir timsolida qullik hayotiga tan berib, qullik taqdiriy azaldan deb, harakatsiz tobe shaxs timsolini gavdalantrsa, olmos timsolida esa, kurashlarda chiniqqan, zulim va zo'ravonlikni bartaraf etishga intiluvchi irodali shaxs siymosini gavdalantradi.

Faylafuf shoir sertashvish, harakatchan, serg'ayrat, o'z-o'zini takomillashtirish uchun tinimsiz mehnat qiladigan, ertangi bahtli kunga zamin tayyorlaydigan shaxsni ardoqlaydi, tarannum etadi, vatandoshlarining istiqbolini o'ylab ish qilishga davat etadi.

“Bugunning zavqi-la yonmagan kishi  
Ertaning shavqidan bo'ladi mahrum.  
Kimning bugun-la bo'lmasa ishi  
U erta anduhga bo'ladi mahkum”<sup>64</sup>.

Tinimsiz jo'shqinlik mashaqqatlar bilan kurash bu hayotdir. U o'zining bu ko'rinishida ozodlik sinonimiga aylanadi. “Bir so'z bilan aytganda hayot bu

---

<sup>63</sup> Iqbal M. Payame mashriq 98 b.

<sup>64</sup> Iqbol.M.The Secrets of the Self London 1974 B-53

ozodlikka intilishdir”<sup>65</sup>, deb yozadi Iqbol. Harakat va kurash insonning yashash uslubidir. Muhammad Iqbol inson hayotini dengiz to’lqini bilan qiyoslaydi.

Harakatda tirikman

Harakatsiz o’likman.

Bo’shanglik, harakatsizlik individuallikning yo’qligini anglatib, uning o’lganligidan dalolat beradi<sup>66</sup>, deydi.

Shaxs haqidagi bunday tushuncha faqat yaxshilik va yovuzlikka baho berish mezoni hisoblanadi. Shaxs quvvatiga quvvat qo’shuvchi – yaxshilik, uni holdan toydiruvchi – yovuzlikdir. Individ hayot faoliyatning asosini tashkil etuvchi orzu va ehtiroslar o’z-o’zicha paydo bo’lmaydi, balki iliq hissiyoti orqali amalga oshadi. Muhammad Iqbol fikricha, ishq shaxsning eng oliy sifatidir. Ishqda bitmas tunganmas ichki quvvat va taraqqiyot bulog’i bordir. Agar ishq faol ibtido sifatida shaxsni kuchaytirsam, iltijolik shaxsni kuchsizlantrib, uni halokatga olib boradi. “Sual”, ya’ni iltijo ma’nosida Iqbol shaxsiy intilishsiz, harakatsiz, mehnatsiz erishilgan barcha narsani tushunadi.

Faylasuf Iqbol “gado” yoki “qashshoqlik” deb iqtisodiy nochorlikda yashovchi kishini emas, balki xalq ommasining qonini kanadek so’ruvchi, ular hisobiga yashovchi, tekinxo’r kishilarni tushunadi.

“Mehnat ila gar topsa non,

Bahtiyor bo’lur unda inson”<sup>67</sup>.

Olimning fikricha, jamiyatga o’zini bag’ishlagan shaxs barhayotlikni kasb etadi. Chunki u o’zida jamiyatning o’tmishi va kelajagini mujassamlashtiradi. “Haqiqiy shaxs o’zining barcha qobiliyatlarini jamiyatga bag’ishlanishi lozim. Olimning individi kishilik jamiyatining asosini tashkil etadi. Shaxs o’zining cheklangan va nihoyasiga ega bo’lgan ruhiy dunyosini tarixiy taraqqiyot yo’lida barhayotlikka erishgan hamda o’z imkoniyatlari bilan cheksiz bo’lgan jamiyatga

<sup>65</sup> Анিকেев Н.П. Проблема личности в философии Икбала «Вопросы философии» -Москва 1959 №6

<sup>66</sup> Yo’ldoshev S. Muhammad Iqbol Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri -Toshkent 1979 75 b.

<sup>67</sup> Iqbol M. The Secrets of the Self -London 1974 90 b.



bag'ishlaydi"<sup>68</sup>. Faylasuf shoir o'zining "Rumuze behudi" (Shaxs sirlarining ochilishi) asarida "jamiyatni shaxs imkoniyatlari va uning hayotidagi o'rnini anglatuvchi faoliyatdir"<sup>69</sup>, deydi. Bu masnaviy vatandoshlarining milliy ongining shakillanishi va rivojlanishi hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatni yanada mustahkamlashga qaratilgan. Olim mazkur masnaviysida o'z zamonasidagi dolzarb masalalarga, insonning jamiyatiga, xalqqa xizmat qilishi lozimligiga urg'u beradi. Faqat bu kurash tufayli inson biologik individual barhayotlikka erishgan shaxsga aylanadi.

Muhammad Iqbol o'zining "Daraxtni mahkam ushla va o'z bahoringga ishon" she'rida jamiyatdan, xalqidan ajralgan rahbarni daraxtning singan shoxiga qiyoslaydi. Iqbol "Haqiqiy shaxs o'zining barcha qobiliyatini jamiyatga bag'ishlasi lozm"<sup>70</sup>, deydi. Iqbolning individi insoniyat jamiyatining asosini tashkil etadi.

Hazrat Ali jamiyatda tenglik va adolat bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Odamlar shakl-shamoillari jihatdan tengdirlar. Ularning otasi Odam, onasi esa Havodir. Demak, odamlar aslida tengdirlar. Men asilzodaman, sening esa darajang menikidan past, deb nasl-nasab ajratishlariga qarshi chiqdi"<sup>71</sup>.

Muhammad Iqbol shaxs masalasi haqida yozar ekan: "O'zingni tanib olgan bo'lsang, endi o'z millatining saodati yo'lida xizmat qil" deb uqtiradi. Yagona shaxs bir o'zi bamisoli daryosiz hech narsa bo'lmagan qatra qalbidir, deydi. Iqbol o'zining "Shaxs sirlarining ochilishi" masnaviysida shaxs millatsiz alohida hech narsa emas. Ko'rib turibmizki, Iqbol mazkur masnaviysida shaxs jamiyatsiz, jamiyat esa shaxssiz hech narsa emasligini bayon etadi. Shaxsning kamol topishi jamiyat bilan, jamiyatning ravnaqi shaxslar bilan deydi. U o'zining bu fikrini mazkur masnaviysida quydagicha ifodalaydi: "Shaxs agar jamiyat bilan birga bo'lsa rahmatdir. Shaxsning komoloti, javhari millat tufaylidir. Jamiyat bilan birga bo'lishga harakat qil! Ozod insonlar

---

<sup>68</sup> Muhammad Iqbol Asare xudi -London 1915 90 b.

<sup>69</sup> Аникеев Н.П. Выдающийся мыслитель и поэт Мухаммад Икбал -Москва 1959 16 и.

<sup>70</sup> Сарвар Очил Ҳазрат Али шеър ва илм сарвари. -Тошкент 2004 12 б.

<sup>71</sup> Qarang. Сарвар Очил Ҳазрат Али шеър ва илм сарвари. -Тошкент 2004 109 б.

majmuasining ravshan chirog'i bo'li! Shaxs bilan xalq bir ko'zguning ikki tomonidir. Biri ipak, biri gavhar biri somon yo'li, biri yulduz. Komillikka erishgan shaxs ulug', toqatvor, barcha to'siq va qiyinchiliklarni yenga oladi, deydi.

Inson o'zini jamiyat yo'liga bag'ishlashni oliy maqsad deb bilish lozim. Shaxs o'zligini cheklangan va nihoyasiga ega bo'lgan ruhiy dunyosini tarixiy taraqqiyotda barhayotlikka erishgan hamda o'z imkoniyatlari bilan cheksiz bo'lgan jamiyatga bag'ishlaydi. Shu bilan o'zining barhayotligini ta'minlaydi. Shaxs jamiyatda o'z o'rnini topib oladi. Jamiyat esa, shaxsni o'zining ijtimoiy tuzilishiga bo'ysundirib, uni ozod etadi. Muhammad Iqbolning fikricha, faoliyatli shaxsning asosini tashkil etish uchun shaxs o'ziga qanday hurmat bilan qarasa, boshqa shaxslarni ham shunday hurmat qilishi lozmdir. Olim o'zining "Jovidnoma" asarida "gumanizm bu – insonni izzat hurmat qilishlikdir"<sup>72</sup>, deydi.

Shaxs va jamiyat masalasini hal etishda Muhammad Iqbol nemis faylasufi Nitshega taqlid qilgan, uning g'oyasini davom ettirgan, degan tadqiqotchilar ham bo'lishgan. Shunigdek, Iqbol shaxs va jamiyat masalasini hal etishda hech qanday Nitshega aloqasi bo'lmagan, degan fikrni aytgan tadqiqotchilar ham bo'lgan. Bu ikki xil qarashdan biri xatodir. Shak-shubhasiz, Iqbol Nitshe ta'limoti, unign shaxs va jamiyat to'g'risidagi ta'limoti bilan tanish bolgan. Lekin u Nitsheni to'la qo'llab-quvvatlamagan.

Iqbol ham Nitshe ham zabardas, serharakat, mustaqil fikirga ega bo'lgan shaxsni ulug'laydi. Shaxsning bunyodkorlik g'oyalarini ulug'laydi. Lekin bu ulug'lash ikki xil. Muhammad Iqbolning Nitshedan asosiy farqi inson yaratuvchi masalasini hal etishda emas, balki shaxs jamiyatning bir zarrasi ekan, shaxsning jamiyat oldidagi burchi va vazifasi nima? Degan savolga javob berishdan iboratdir. Nitshening "Super men"i faqat Allohdan ajralgan bo'libgina qolmay, balki u jamiyatdan ham ajralgan, alohida turgan oliy shaxs bo'lib, u ommadan ustun turadi. Iqbol aytgan shaxs jamiyatni anglaydigan, xalq manfaatlari yo'lida o'z jonini qurbon qilishga tayyor turgan, ularning g'am-anduhlariga,

---

<sup>72</sup> Iqbol M. Javednoma Lahor 1999 97 b.

sevinchlariga sherik bo'ladigan kimsadir. Iroda erkinligiga ega bo'lgan shaxs o'zining faol harakatlari bilan ijtimoiy ideallarni amalga oshirishga o'zini bag'ishlaydi. Aynan shu maqsadlar tufayli ular bir-birlaridan farq qiladi.

Iqbolning “komil insoni” Nitshening insoniga nafrat bilan qaraydigan, xalqni nazariga olmaydigan “oliy inson”nidan tubdan farq qiladi. A.Uaytxed kabi ba'zi olimlar Muhammad Iqbolni “Sharqning Nitshesi” deb ham aytishadi. Bu fikrning nechog'lik bemani ekanligi haqida Iqbol ijodining tadqiqotchilaridan bir, faylasuf olim S.A.Vohid shunday degan: Muhammad Iqbol bilan Nitshe g'oyalari o'rtasida hech qanday yaqinlik yo'q, ularning dunyoqarashi butunlay qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tashkil etadi. Bu haqda Muhammad Iqbolning o'zi Nikolsonga yozgan bir xatida shunday deydi: “Janob Nikolson, “Shaxs sirlari” asarimni tarjima qilganingizdan benihoya xursandman. Lekin ayrim ingliz tadqiqotchilari mening falsafamni yuzaki o'rganganliklari tufayli “komil inson” nazaryamni Nitshening “oliy inson” nazaryasi bilan tenglashtrib, yanglishadilar<sup>73</sup>, deydi.

Shaxs faqat jamiyatda o'z vazifasini va hayotdagi o'rnini tushunadi, birining taraqqiyoti ikkinchisining taraqqiy etishiga olib boradi, deydi faylasuf. Shaxs va jamiyat bir-biriga qarama-qarshi bo'lmasligi lozim. Lekin jamiyat shaxsdan balanddir. Aslida shaxs jamiyatda teng huquqli bo'lmog'i lozim. Shaxs faqat jamiyatda taraqqiy etadi va kamol topadi. Agar individ dur bo'lsa, xalq esa, durlardan bitilgan marvariddir. Jamiyatga singib ketgan individ bamisoli dengizni aks ettiruvchi qatraga o'xshaydi. Har bir individ o'ziga yakkalik va umumiylik xususiyatlari bilan shu qadar mahkam bog'liq bo'lishi kerakki, ularni bir-biridan ajratib olishmasin. “Xalqdan ajralgan shaxs bamisoli daraxtning singan bir shoxidir”<sup>74</sup>, deydi mutafakkir. O'zining mazkur qarashini davom ettirib, faylasuf quydagi fikrni ifodalaydi.

Daryo mavji faqat daryo bilan mavjud,

---

<sup>73</sup> Qarang. Гордон Полонская Л.Р. Мусульманские течения в общественной мысли Индии и Пакистана Москва 1983 187 б.

<sup>74</sup> Гордон Полонская Л.Р. Мусульманские течения в общественной мысли Индии и Пакистана Москва 1983 207 б.

Daryodan tashqarida aslo bo'lmas mavj.

Muhammad Iqbol shaxs va jamiyat o'rtasidagi aloqaning muhimligini batafsil tahlil qilgach, quydagi xulosaga keladi:

1. Individ o'z shaxsiyatini jamiyatdan tashqarida taraqqiy ettira olmaydi.
2. Jamiyat ham individsiz yashay olmaydi.
3. Jamiyatni mensimaydigan shaxs buyuk inson emas, aksincha, o'z hayotini jamiyat hayoti bilan bog'lagan shaxs buyuk insondir. Bu borada u professor Megdugla fikriga qo'shiladi. Ya'ni jamiyatsiz individ o'zining insoniylik mohiyatini nomoyon eta olmaydi<sup>75</sup>.

Faylasuf Muhammad Iqbol shaxs va jamiyat haqidagi fikrini nozik tab bilan ifoda eta oladi. Chindan ham Iqbol shaxsning yaratuvchanlik qobiliyatini tarannum etib, uning tabiatni zabt etishdagi cheksiz imkoniyatlarini mohirlik bilan ko'rsata oladi. Harakat va kurash shaxsning yashash usulidir va ayni vaqtda u ozodlikning nomoyon bo'lishi hamdir. Ozodlik shaxs kamol topishining zaruriy shartidir, deydi.

Muhammad Iqbolning shaxs haqidagi ta'limoti individualizmni tarannum etish emas, balki individni jamiyat bilan mustahkam aloqadorlikda deb bilishdan kelib chiqadi. Iqbol tafakkuridagi shaxsning yaratuvchanlik, faollik g'oyalari Said Ahmad Xon qarashlaridagi "apni madad ap" (o'z-o'ziga madad) ta'limoti bilan chambarchas bog'liqligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Jamiyat bilan o'z taqdirini, hayotini bog'lagan shaxs insoniylikning eng oliy shakli bo'lmish "mo'min" bo'la oladi, deb ta'kidlaydi faylasuf shoir.

"Mo'min emas faqat namoz o'qigan banda,  
Mo'min bo'lur inson o'zini tanib olganda"<sup>76</sup>.

Mutafakkir ilgari surgan shaxs muammosi, uning faolligi, kelajak uchun har qanday qiyinchilikni yenguvchi kurashchan, tinim bilmaydigan, porloq kelajak yo'lida o'z individual hayotni jamiyat hayoti bilan bog'lovchi shaxs, o'z davrida Hindiston yarim orolida milliy kurash avj olgan bir paytda muhim

---

<sup>75</sup> Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri -Toshkent Fan 1979 78 b.

<sup>76</sup> Muhammad Iqbol She'rlar -Toshkent 1973 B-39

xizmat qildi. Iqbol o'zining "Shaxs sirlarining ochilishi" masnaviysida shaxs va jamiyat bir-biriga qarama-qarshi bo'lmasligi kerak. Shaxs jamiyatda teng huquqli bo'lmog'i lozim. Muhammad Iqbol ijodining turli-tuman ildizlari, ichki ziddiyatlari uning qarashlarining qarama-qarshilikari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu haqda taraqqiyparvar hind shoiri Ali Sardor Jamariy o'zining "Taraqqiy pasand adab" (taraqqiyparvar adabiyot) asarida shunday yozadi: "Iqbol poeziyasi ipak va ipdan to'qilgan matoga o'xshaydi. Uni tahlil qlayotganingizda ipni ipakdan ajrata bilishingiz kerak"<sup>77</sup>, deydi. Muhammad Iqbol madh etgan shaxs faoldir. Uning hazrati insonni ulug'lab aytgan har bir so'zi, insoniyatni ulug'lagan bongga o'xshaydi.

“Qurmagil bazmini qirg'oq bo'ynida,  
Sokin eshitar hayot nag'masi.  
O'zingni dengizga, to'lqinga urki,  
Qa'ridan yangrasin chin hayot sasi.  
Hayot bu kishanlar ila kurashdir,  
Shundadir oqibat taqdir hamasi...  
Taqdir zanjiriga tutma oyoqni  
Bu gumbaz ostida yo'lchiga yo'l bor.  
Yo'lga nurini sochadi umid  
Yo'ling ham, diling ham bo'lar shulador”<sup>78</sup>.

Ezilgan bechorayu yo'qsillar, g'aribu ojizlarni o'z haq-huquqi uchun kuashga davit etgan otaashin vatanparvar shoir ko'z o'ngida ingiliz bosqinchilariga qarshi kurash, mahalliy sarmoyador va zamindorlarga qarshi kurash bilan chambarchas bog'liq. Iqbol jamiyatdagi turli tabaqa va qatlamlarning hayoti, ularning tabiati, intilishlari, ijtimoiy taraqqiyotlaridan yaxshi voqif bo'lgan shoir sifatida zolimlarning xalq ommasini chalg'itish, gumroh qilish yo'lida qo'llaydigan hiyla-nayranglari, kirdikorlaridan ogohlikka davit etadi. Ijtimoiy illat va bidat, xurofotlarni fosh etadi. Umuman mehnatkash

---

<sup>77</sup> Ali Sardor Jafariy Taraqqiy pasand adab -Lahor 1978 112 b.

<sup>78</sup> Muhammad Iqbol She'rlar -Toshkent 1973 57 b.

xalq siymolari allomaning doimo diqqat e'tiboridan, nazaridan chetda qolmaydi. U insonning jamiyatdagi munosib o'rni haqida gapirib, agar u doimo faol harakatda bo'lsa, o'z taqdiri uchun kurashsa, o'z taqdirining xo'jayini bo'lishi aniq, deydi. Inson yakkalikning oliy shakli bo'lganligi uchun ham tabiatni o'zgartirishga qodir, deydi.

“Tabiatning ajib nozi bor!

U insondan yashirar sirin.

Sirlarini tutar yashirin.

Ammo istak aqlini qistab,

Bu sirlarni ochadi istab”<sup>79</sup>.

Muhammad Iqbol hazrati insonning qudrati, imkoniyati va iqtidorini cheksiz deydi. Insonni shuning uchun o'z erki, ozodligi yo'lida kurashishga chorlaydi, lekin loqaydlik, o'z taqdiriga beparvolik, turg'unlik insonni ham jisman, ham ma'naviy jihatdan halok qilishi mumkinligini takidlaydi. Mutafakkir shuning uchun harakatchan, kyunchak, serg'ayrat, o'z-o'zini takomillashtirish uchun tinmay mehnat qiladigan, ertangi kun g'amini yeydigan, komil inson bo'lishga intiluvchi, Ona vatan iqbolini o'ylovchi insonni ardoqlaydi va madh etadi.

Muhammad Iqbolning fikricha, hayot misli jangoh. Barcha narsa inson uchun yaratilgan. Shuning uchun mutafakkir inson bo'sh, beparvo bo'lib, tutab yotishi kerak emas, olmosdek pishiq, laldek yonishi, mashal bo'lib yo'l ko'rsatishi, o'z haq-huquqi, erki va ozodligi uchun kurashmog'i, serbardosh bo'lmog'i kerak, yeydi<sup>80</sup>.

Alloma Iqbol tabiatning buyuk mo'jizasi Hazrati insonning ma'naviy-iqtisodiy va siyosiy ezilishidan kuyunib, uni xor, abgor, zabun holga soluvchi burjua tuzumini fosh qilib, unga lanatlar o'qiydi va najod istab inqilobga davat etadi. Jamiyat uchun o'z kuchini, aql-zakovatini, hayotini tikkan, jafokash

---

<sup>79</sup> Muhammad Iqbol She'rlar -Toshkent 1973 46 b.

<sup>80</sup> H.Malik Iqbal man of thought and action Iqbal Poet and Philosopher of Pakistan New York 1971 B-132

dehqonlarning ayanchli holatiga qattiq achingan Muhammad Iqbol o'zining "Panjob dehqonlariga" she'rida bunday yozadi:

"Aytgil-chi, hayotning siri nimada?  
Ming yillardan beri to'kmoqdasan ter.  
Qara, tong otmoqda, uyg'ongil endi,  
Qalbing otashiga payvanddir bu yer.  
Bu yerdir dehqonga qutu baraka,  
Shundadir dehqonning hayot hunari.  
Mehnatni bilmagan har bir kimsaning,  
Qalbaki bo'ladi lalu guhari"<sup>81</sup>.

Muhammad Iqbol Panjob dehqonlarini hamjihatlik bilan bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishga chorlaydi, chunki birlik, jipslik mahkumni ozodlikka olib keladi. Mutafakkirning yoshlik chog'lari Panjobda o'tgan. Bu go'zal diyor abgor dehqonlarning ahvolini yaxshi bilgan. Alloma Iqbol shuning uchun, zahmatkash dehqonlarni zolim zamindorlarga qarshi kurashga davat etadi.

Faylasufning fikricha, ijodiy faollik va kurash insonning haqiqiy mohiyatini nomoyon qiladi. Olam inson uchun kuzatish, bilish ob'ekti bo'libgina qolmay, balki u o'z hatti- harakati va aqil-zakovati bilan undan mohirlik bilan foydalanishi lozim, deydi<sup>82</sup>. Muhammad Iqbol insonparvar shoir sifatida barcha maslakdosh shoir va adiblarni insonni ardoqlashga, uning bitmas-tuganmas kuch-g'ayratini tinmay madh etishga davit etadi.

"Ey ishchi! Senga butun koinot hamdard. Sarmoyadorlarning huzur-halovati, ayshu-ishratlari mehnating tufaylidir. Ular qoningni kanadek so'rgan. Mehnating evaziga beradigan ish haqqi bamisoli gadoga qilinadigan hayru ehsondan boshqa narsa emas. Sarmoyador o'zining razil, qabih niyatini amalga oshirishda dindan foydalanishga harakat qiladi. Irq, rang, millat degan g'ayri

---

<sup>81</sup> Muhammad Iqbol She'rlar Toshkent 1973 B-85

<sup>82</sup> Qarang: Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol abadiyati -Lahor 2009 B-85

insoniy g'oyalarni o'ylab topib, insonlar o'rtasiga nifoq solib, birini ikkinchisiga dushman qilib qo'yadi.

“Ko'zingni och! Mazlum xalqim!

Inqilobiy zamon keldi,

Tilsimni parchalab tashla!

Sarmoyadorlar davri bitdi”<sup>83</sup>.

Insonning qadr-qimmatini, g'ururini, qaddini tiklaydigan zamon keldi. Bir tanu birjon bo'lib, Ona Vataningni bo'stonga aylantir degan g'oyalarni ilgari suradi. Inson buyuk kuch. Yerdagi barcha nozu ne'matlar, bog'u bo'stonla Hazrati inson qo'li ila bunyod etilgan. Hatto jonivorlar ham inson oldida bosh egib ta'zim qiladilar.

Muhammad Iqbol har bir shaxs har qanday qiyinchiliklarni yengib, olmosdek mustahkam va keskir bo'la olsa, unda u komil inson darajasiga ko'tarila oladi, degan fikirni ifodalaydi. Shoir yana bir sherida inson hayotini to'lqinli dengizga o'xshatib, harakat va kurash insonning yashash uslubi, degan xulosaga keladi.

---

<sup>83</sup> Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol abadiyati -Lahor 2009 B-86



## Umumiy xulosalar

Sharqning mashxur faylasuf shoiri Muhammad Iqbol faqat Hindiston yarim orolidagina emas, balki butun xorijiy sharqning adabiy, siyosiy va g'oyaviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan faylasuf shaxsdir.

Muhammad Iqbolning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari o'zi yashagan va o'zidan keyingi davrlardagi Hindiston musulmonlarining ijtimoiy tafakkurining asosiy mazmunini belgilab bergan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu haqida ayrim yirik olimlarning aytgan fikrlarini dalil sifatida keltirsak bo'ladi. Masalan, mashxur sharqshunos olim X.A.Gibb Iqbol to'g'risida: "Iqbolni tushunish Hindistonda islom mohiyatini tushunish demakdir", degan edi. Garchand bu fikirda Muhammad Iqbol ijodidagi diniy ta'limotlar meyoridan ortiqroq bo'rttirib ko'rsatilgan bo'lsa ham, Muhammad Iqbolning dunyoqarashi va tafakkur doirasining yuksakligi sezilib turadi.

Muhammad Iqbol Hindiston yarim orolidagi ijtimoiy falsafiy fikrlar taraqqiyotida musulmon oqimining yirik namoyondasi hisoblanadi. Shak shubhasiz uning ta'limoti ham qadimgi, ham hozirgi, ham Sharq, ham G'arb falsafasiga borib taqaladi. Muhammad Iqbol ana shu sarchashmalardan o'ziga xos ravishda foydalangan.

Iqbol ijodida gumanizm, vatanga sadoqat g'oyalari o'rin olganligi uchun uning shuxrati nafaqat Sharqda, balki butun dunyoga tarqalgan. Uning insonparvarlik ruhida yozilgan ko'pgina she'riy kitoblari ko'p ming nusxada dunyodagi turli tillarga tarjima qilinishi bilan bir qatorda O'zbekistoniizda ham ko'p nusxada ona tilimizga o'girilib, xalqimizg sovg'a qilindi.

Shaxs masalasi barcha davrlarda barcha xalqlar uchun doimo dolzarb va muhim muammo bo'lib kelgan. Muhammad Iqbol ijodida ham shaxs va jamiyat masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Faylasufning shaxs haqidagi ta'limoti individualizmni tarannum etish emas, balki individni jamiyat bilan mustahkam aloqadorlikda, deb bilishdan kelib chiqadi. Inson mohiyatini ochishda ma'rifatli

shaxsning faol harakati nihoyatda zarur ekanligi to'g'risidagi fikri, uning ijtimoiy qarashlarining asosini tashkil etadi.

Iqbol falsafaning asosiy masalasini hal qilishda ob'ektiv idealizm pozitsiyasida turgan. Tabiat, jamiyat va insonga u doimiy harakatda, rivojlanishda va shakillanishda, deb qaraydi. Inson qudratining doirasi tabiatdan ustunligini, inson o'zini o'rab turgan kuchlardan qudratli ekanligini anglash unga ishonch berib, Ona Vatan ozodligi yo'lidagi kurashda dalda bo'ldi.

Tarixiy, madaniy obidalarning ijodkori ham inson, dunyodagi yeti mo'jizalardan biri Hind xalqining buyuk me'morchilik durdonasi – Toj Mahal inson aql zakovati, mehr-muabbati, yaratuvchanlik qudratining haqiqiy timsolidir.

Faylasuf shoirning qarashlarini tahlil etar ekanmiz, uning olamni bilish pozitsiyasida turganligini, inson bilimining kuch-qudratini tan olganini ko'ramiz.

Muhammad Iqbolning falsafiy qarashlari mazmunli va chuqur g'oyalarga boy, uning ildizlari teran va turli-tumandir. Unda musulmon diniy falsafiy g'oyalari majmuasi va XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi Yevropa faylasuflarining ilmiy fikirlari, shu bilan bir qatorda Sharqning mashhur olimlarining ilg'or falsafiy g'oyalari o'z ifodasini topgan. Lekin bu oqimlardan qaysi biri yoki qaysi mutafakkir Muhammad Iqbolga katta ta'sir o'tkazgan degan savolga qat'iy bir javob berish qiyin.

Muhammad Iqbol ijodiyotini o'rganayotgan tadqiqotchilarning fikirlari bu borada bir xil emas. Jumladan, Muhammad Iqbol ijodi bilan shug'ullangan rus faylasuf olimi N.P.Anikev “Umuman Muhammad Iqbol to'la va uzviy bog'liq falsafiy qarashlar tizimini yaratgan, deb gapirish mumkin emas”, degan edi. Shak-shubhasiz Yevropa tafakkurining faylasuf shoirga ta'siri ulkan bo'lgan, chunki u Yevropa falsafasining o'sha davrdagi taraqqiyoti bilan yaxshi tanish edi. Masalan, u Kant, Gegel, Fixte, Shopengaur kabi g'arb faylasuflari bilan bir qatorda Leybinis, Nitshe, Bergson va boshqalarga murojaat etib, ulardan shaxs, mutloq aql, ichki mushohada (intuitsiya), iroda, ozodlik kabi falsafiy

kategoriyalarni ishlab chiqishda foydagan. Muhammad Iqbol shunigdek, ushbu masalalarni hal etishda Rumiyy, Ibin Al Arabiyy, G'azzoloy, Al Jiliyy, Shoh Valiulloh, Said Ahmadxon, Mirzo Bedil, Mirzo G'olib va boshqa sharq faylasuflarining boy merosiga qayta-qayta murojaat qilib keladi. Rumiyyning adabiy ilhomchisi va ruhiy ustozisi Shams Tabriziyy bo'lgan bo'lsa, Muhammad Iqbolning ruhiy ustozisi Jaloliddin Rumiyy bo'lgan. U faylasuf shoir uchun ichki ovoz, haqiqat kamertoni bo'lib, Muhammad Iqbol unga qarab o'z sozining torlarining sozlagan.

Rumiyy shoir o'z-o'zini kurashda yengib, xalqqa o'zining missiyasi nimadan iborat ekanligini aytishi lozim, deydi. Shoirning qidirayotgan yo'lchi yulduzi bu ishqdir. Muhammad Iqbol o'z masnaviysining kirish qismida Rumiyy tilidan o'zining dasturi amali muhabbat va aql ekanligini aytadi. Shoir o'zgalarga ham o'z qalb qo'rini o'tkazib, ma'naviylikni va jo'shqinlikni uyg'otish kerak deydi. Shu haqda Muhammad Iqbol shunday deydi: "Meni ishq sayqalladi, inson bo'ldim. Dunyoning ulug'vorligi va ojizligini bildim".

Muhammad Iqbol Jaloliddin Rumiyy timsolida o'zining falsafiy va diniy ustozini ko'rdi. Ilohiy nur ila nurlangan qalb, o'zi ham nurga aylandi. Joziba markazi kabi Shams Tabriziyy kabi Rumiyyni alangalatgani singari Rumiyy ruhi ham Iqbolning qalbiga otash soldi.

Muhammad Iqbolning ustunligi shundaki, u millat mustaqilligi uchun kurashda she'riyatning va ma'rifatning hayotiy zarurligini anglab yetgan edi. Yana shuni takidlash lozimki, shoir bu kurashning nazariy asosini islomda ko'rdi hamda mavjud ijtimoiy tuzumni o'zgartirishni diniy mafkurada, deb bildi va shunga ishondi. Muhammad Iqbol olamni bilishda fan va falsafaning rolini kamsitmagan holda din insoniyatni baxtsizlikdan, falokatlardan qutqarishga qodir, deb biladi. Olimning tasavvuf ta'limotiga qiziqishida piri, ustozisi Jaloliddin Rumiyyning ta'siri juda katta bo'lgan. Lekin shunisi ham borki, Muhammad Iqbol tasavvuf ta'limotini to'laligicha qabul qilmagan.

Tasavvufdagi passivlik va tobelik Muhammad Iqbolning komil inson ta'limotiga qarshi edi. Chunki Muhammad Iqbol ozodlikni va mustaqillikni

tinimsiz kurashda, jo'shqinlikda ko'radi. U inson hayotining ma'nosini faol kurashda deb biladi. "Ego"ning pirovard maqsadi kuzatuvchanlik, passivlik emas, balki ijtimoiy o'zgarishga davat etadigan ulug' kuchdir, bu kurash va faollikdir. Faylasuf fikricha, ijodiy faollik va kurash inson mohiyatining haqiqiy mazmunini tashkil etadi.

Inson o'zi tug'ilib o'sgan joyni va istiqomat qilib turgan makonni Vatan sifatida qadrlaydi. Yer kurrasi butun insoniyat uchun umumiy vatandir. Insoniyatning asriy orzusi ozod va obod Vatanda istiqomat qilishdir. Vatanni himoya qilish bizning shariy va insoniy burchimiz ekanligi tufayli ham, biz yurtimizni qadrlaymiz, ulug'laymiz va unga sadoqat bilan xizmat qilishga intilamiz. Bejizga Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir! deb aytilmagan.

Muhammad Iqbol, Maxatma Gandi va boshqa mutafakkirlarni "Himolay" tog'iga o'xshatish mumkin. Himolay tog'i bamisoli tabiatning o'zi yaratgan mustahkam qo'rg'on sifatida Hindistonni muhofaza qiluvchi, Ona Vatanga yopirilib kelayotgan har qanday yovuz kuchlarni tik turib, daf qiladigan qalqonni eslatadi.

Muhammad Iqbolning do'stlik, baynalminanlik va vatanparvarlik g'oyalari Hindistonda ingliz mustamlakachilariga qarshi boshlangan milliy-ozodlik harakati qatnashchilarining kuchiga kuch qo'shdi hamda ingliz mustamlakachilarining diniy nizoga asoslangan "bo'lib tashla va hukumroluk qil", degan bosqinchilik nazaryasiga qattiq zarba berdi.

Faylasuf Ona Vatanida ham yangicha davr, yangi dunyo qaror topishiga imoni komil edi. U jo'shib kuylagan va orzu etgan ozodlik, shoir vafotidan so'ng to'qqiz yil o'tib 1947 yili barpo etildi.

Muhammad Iqbolning adabiy va ilmiy merosi, yuksak insonparvarlik ideallari, inson do'st va hamjihat yashashi kerak, degan baynanmilanlik g'oyalari, inson o'zining bitmas yuganmas kuch-qudrati, aql-zakovati bilan tabiatni zabt eta oladi, degan g'oyasi, tobelikka qarshi kurashga davati, XX asr boshlarida Hindiston yarim orolida milliy ozodlik harakati avj olgan bir paytda, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etdi. Uning bu ta'limoti hozirgi kunda ham

Pokiston Islom Respublikasining Taraqqiyoti yo'lida qudratli dastur bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Men xolis tadqiqotchi sifatida Muhammad Iqbolning yutuqlari bilan birgalikda uning kamchiliklarini ham aytib o'tmoqchiman. Faylasuf Iqbol va uning izdoshlari (Musulmonlar Ligasi) ning faoliyati tufayli Hindistonni ikkiga Hindiston va Pokistonga bo'linishi eng katta kamchilik hisoblanadi. Chunki Hindiston va Pokiston ikki mustaqil davlat bo'lib, boshqa boshqa dinga e'tiqod qilsada, ularda bir butun Hindiston xalqi ruhiyati mavjud. Bu davlatlatni din ajratib tursada, ular bitta mintaqada istiqomat qilgan, birga umrguzaronlik qilgan xalqlardir. Keyinchalik Bangladesh ham ajralib chiqdi. Hozirgi kunda boshqa hududlarida ham ayirmachilik harakatlari ham mavjud.

## ADABIYOTLAR RO'YHATI

### 1. O'zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi 44-I-son, 1997-yil 29- "ya'lim tog'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi 463-I-son, 1997-yil 29-avgustdagi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi N 429-XII son 1991-yil 20-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan).
5. Karimov I. "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi ro'li va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi// Xalq so'zi. 2014-yil 16-may.
6. Karimov I. A. Yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti, //Xalq so'zi. 2012.
7. Karimov I.A. Eng asosiy me'zon-hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O'zbekiston, 2009.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
9. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.O'zbekiston, 2011.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.6.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.1.-Toshkent: O'zbekiston, 1991.
12. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent: O'zbekiston, 1999.

## **2. Ilmiy adabiyotlar**

### **2.1. O'zbek tilidagi**

13. Ahmedova M., Yo'ldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi. -T., 2006.
14. Фалсафа қосуий луғат. –Т. : Шарқ, 2004.
15. Жахон адабиёти. –Т., 4.1997.
16. Сарвар Очил. Хазрат Али шеър ва илм сарвари. -Т.: Фан, 1994.
17. Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol Abadiyati. -Lahor. Khalid Faisal. 2009.
18. Yo'ldoshev S. Muhammad Iqbol Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri -T.: Fan, 1979.
19. Ёўлдошев С. Муҳаммад Иқбол дунёқарашининг айрим масалалари. -Т.: Фан, 2009.
20. Тешабоев Ф. Муҳаммад Иқбол дунёқарашининг асослари. -Т.: Фан, 1984.
21. Усмонов О. М.Иқбал афғонлар эркесварлигининг куйчиси. -Т.: Фан, 1979.
22. Фазл Мабуд Алим. Иқбол шеърятининг тарихий тараққиёти. Покистон, 1967.
23. Фалсафа қомусий луғат. -Т.: Шарқ, 2004.

### **2.2. Rus tilidagi**

24. Аникеев Н.П. Выдающийся мыслитель и поэт Мухаммад Икбал. -М.: Наука, 1959.
25. Аникеев Н.П. Проблема личности в философии Икбала//«Вопросы философии». -Москва, 1959.
26. Гордон Полонская Л.Р. Мусульманские течения в общественной мысли Индии и Пакистана. -Москва, 1963.
27. Григорян С.Н. Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. -М.: Наука, 1994.
28. Неру Ж. Открытие Индии. -М.: Наука, 1956.
29. Пригарина Н.И. Поеззия мухаммад Икбала. -Москва, 1972.
30. Проф. Сайид Абдурашид Фазл. Пехли китаб. -Покистон, 1978.
31. Степанянц М.Т. Философии и социология в Пакистане. -Москва, 1967.

32. Философский энциклопедический словарь. -Москва. 2004.

33. Философский словарь – Ростов. -Москва. 1967.

### **2.3. Ingliz tilidagi**

34. Albiruni A.N. Maker of Pakistan and Modern Muslim India. -Lahore, 1950.

35. Anikev N.P. The Doctroine of Personality in Iqbal Poet and Philosopher of Pakiston. -New York, 1971.

36. Iqbal M. The Reconstruction of Religious Thought in Islom. -Lahor, 1958.

37. Vahid S.A. Iqbal. His Art and Thought. -London, 1959.

38. Gibb H.A. Modern in Islam. -Chicago, 1948.

### **2.4. Fors tili**

39. Muhammad I. Asare xudi. (Shaxs sirlari) -London, 1915.

40. Muhammad I. Bange dara. (Karvon qo'ng'irog'ining ovozi) -Lahor, 1915.

41. Mumammad I. Javednoma Lahor 1999

42. Проф. Сайид Абдурашид Фазл. Пехли китаб. -Покистон, 1978.

### **Internet Saytlar**

43. <http://www.allamaiqbal.com>

44. [www.spiritualbee.com/free-spiritual-books/](http://www.spiritualbee.com/free-spiritual-books/) [www.](http://www.)

45. [Wikipedia.com/books/](http://Wikipedia.com/books/)

46. <http://www.iqbalcyberlibrary.net>

47. [www. Enciklopedia Macmillan. English](http://www.Enciklopedia Macmillan. English)

48. [www.Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com)

49. [www.Google.com](http://www.Google.com)

50. [director@iap.gov.pk](mailto:director@iap.gov.pk)